

“...YANGI OʻZBEKISTON BARCHA DAVLATLAR
BILAN OʻZARO HAMJIHATLIK, OCHIQ MULOQOT VA
YAQIN SHERIKLIK TARAFDORIDIR. BIZ XALQLAR,
MADANIYATLAR VA SIVILIZATSİYALAR OʻRTASIDAGI
MULOQOTNI MUSTAHKAMLASH, UMUMBASHARIY
MAQSADLARNI ROʻYOBGA CHIQARISH YOʻLIDA OʻZ
HISSAMIZNI QOʻSHISHGA DOIM TAYYORMIZ...”

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti
Shavkat MIRZIYOYEVning
Birlashgan Millatlar Tashkiloti
Bosh Assambleyasi 80-sessiyasidagi nutqidan.

MUNOSABAT

Bugungi kunda Oʻzbekiston tashqi siyosatini belgilovchi asosiy yoʻnalishlardan biri – Birlashgan Millatlar Tashkiloti bilan hamkorligimiz sifat jihatidan yangi bosqichga koʻtarilganiga barchamiz guvohmiz. Ayniqsa, dunyoda kechayotgan globallashuv jarayonlari bashariyat taraqqiyotiga ijobiy taʼsir koʻrsatish bilan birga, turli tahdid va xavf-xatarlarni ham namoyon etayotgan bir sharoitda jahondagi ushbu eng nufuzli xalqaro tuzilma bilan tinchlik va barqaror taraqqiyotni taʼminlash yoʻlida samarali hamkorlik qilish xalqimizning tub milliy manfaatlariga toʻla mos keladi.

Oʻzbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining avvalgi sessiyalarida soʻzlagan nutqlarida tashkilotning bundan keyin ham xalqaro munosabatlarda hal qiluvchi oʻrin tutishini taʼkidlab, davlatimizning bu boradagi tashqi siyosiy pozitsiyasini global va mintaqaviy ahamiyatga ega aniq tashabbuslar misolida ifodalab bergan edi. Mamlakatimiz rahbarining kuni kecha yakuniga yetgan yubiley anjuman – 80-sessiyada ilgari surgan tashabbuslari ham butun dunyo, jumladan, mintaqamiz uchun gʻoyat muhim ahamiyatga egaligi bilan ajralib turadi.

Avvalo, Oʻzbekiston yetakchisi zamonaviy xavf-xatarlarga qarshi samarali kurashish, rivojlanayotgan davlatlarning manfaatlarini himoya qilish maqsadida BMT Xavfsizlik Kengashini transformatsiya qilish va uning tarkibini kengaytirishga chaqirdi. Gap shundaki, BMT Xavfsizlik Kengashi Ikkinchi Jahon urushidan keyingi davrda, dunyoning siyosiy manzarasi hozirgidan tubdan farq qiladigan vaqtda shakllangan. Bugungi kunda dunyo terrorizm, kiberjinoyatchilik,



OʻZBEKISTON VA BMT

SAMARALI HAMKORLIK

iqlim oʻzgarishi, oziq-ovqat va energiya xavfsizligi kabi yangi va murakkab xavf-xatarlarga duch kelmoqda.

Xavfsizlik Kengashining hozirgi tarkibi va ish uslublari bu xavf-xatarlarga yetarlicha samarali javob bera olmaydi. Oʻzbekiston BMTni transformatsiya qilish orqali uning zamonaviy xavf-xatarlarga qarshi kurashish qobiliyatini oshirishni maqsad qiladi. Kengaytirilgan kengash tarkibiga rivojlanayotgan davlatlardan vakillar kiritilishi bu mamlakatlarning ham ovozi eshitilishi va manfaatlari hisobga olinishini taʼminlaydi. Oʻzbekiston rivojlanayotgan davlatlarning manfaatlarini himoya qilish orqali global adolat va tenglikni taʼminlashga intiladi.

Davlatimiz rahbari Oʻzbekistonda Barqaror rivojlanish maqsadlariga hamohang holda amalga oshirilayotgan ortga qaytmas islohotlar jarayoniga batafsil toʻxtaldi. Mamlakatimizda demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy, inson qadrini yuksaltirishga xizmat qiladigan Yangi Oʻzbekistonni barpo etish siyosati olib borilmoqda. Xususan, soʻnggi yillarda Oʻzbekistonda kambagʻallik darajasi 35 foizdan 6,6 foizgacha qisqardi. Taʼlim va ilm-fan sohasining oʻzgarayotgani, innovatsion tarmoqlar va texnologik sanoat korxonalari barpo etilayotgani, “yashil” energetika va transport infratuzilmasi modernizatsiya qilinayotgani, kichik biznes har tomonlama rivojlanishi natijasida millionlab ish

oʻrinlari yaratilayotgani bu yutuqlarga sabab boʻlmoqda. Pedagoglarning oʻzaro tajriba va bilim almashishi uchun yagona xalqaro platformani yaratish maqsadida Oʻzbekistonda Butunjahon professional taʼlim sammitini oʻtkazish taklifi dunyoning turli mamlakatlardan keladigan pedagoglar va taʼlim sohasi mutaxassislarga oʻz tajribalarini oʻrtoqlashish, yangi bilimlar olish va eng yaxshi amaliyotlarni oʻzlash-tirish, taʼlimdagi innovatsion yondashuvlar, zamonaviy texnologiyalar va oʻqitish metodlarini muhokama qilish, Oʻzbekiston pedagoglariga oʻz faoliyatida yangiliklarni qoʻllashga yordam beradi.

(Davomi 2-sahifada.) ➡

VATAN MANZUMASI

Eshqobil SHUKUR

MUALLIM

Odamtogʻlar bordir, odamdaryolar –
Dunyoni yetaklab yurgan dunyolar.

Ilk hayot kitobin yozgan ulardir,
Maxluqdan Insonni tuzgan ulardir.

Ulardir ming yillik zulmat yoʻlidan
Oʻtgan avlodlarning tutib qoʻlidan.

Koʻz nurini berib ham berib jonin,
Koʻzlarini ochgan soʻqir dunyoning.

Ilk harfda koinot kalitin topgan,
Ilk soʻz-la jaholat yoʻlini yopgan.

Yonidan kiborlar oʻtsa valaqlab,
Ular sukut qilgan kitob varaqlab.

Tuproqday xokisor, suvday hayotbaxsh,
Yoʻlsizlarga yoʻlbaxsh, elga murodbaxsh.

Olam oʻz nurini yoʻqotsa agar,
Muallim yuzidan topar muqarrar.



(Davomi 4-sahifada.) ➡

DAVRA SUHBATI

MAʼNO MAʼVOLARI

Hazrat Alisher Navoiy izidan

“Yurgan – daryo, oʻtirgan – boʻyra”, deydi xalqimiz. Ilm talabida jahon kezmoq – bizga bobomeros odat. Safar asnosida rubʼi maskunning sir-asroridan voqif boʻlasiz, yangi bilimlar ortirasiz, hikmat sohiblariga oshno tutinasiz.



Yaqinda bir guruh oʻzbekistonlik navoiyshunos olimlar Alisher Navoiy nomidagi xalqaro jamoat fondi tashabbusi va homiyligida Eron Islom Respublikasining Tehron, Mashhad, Tus, Gurgon kabi shaharlarida boʻlib qaytdi. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 7-fevraldagi 43-sonli qarori ijrosi doirasida tashkil etilgan navbatdagi ilmiy ekspeditsiya yangiliklarga boy boʻldi.

(Davomi 6-sahifada.) ➡

FAKT

✓ AQSH Prezidenti Donald Tramp “Truth Social” ijtimoiy tarmogʻidagi sahifasida Oʻzbekiston lideri fenomeniga baho berar ekan: “Prezident Mirziyoyev – bir soʻzli inson va biz boshqa koʻplab masalalar ustida birgalikda ishlashda davom etamiz!”, deb taʼkidladi.

✓ Nyu-York shahrida BMT Bosh Assambleyasi 80-sessiyasi haftaligi doirasida nufuzli tashkilotlar, vazirlik va “Zamin” fondi hamkorligida “Saraton va boshqa hayot uchun xavfli kasalliklarga chalingan bolalarning yashovchanligini oshirish va azob-uqubatlarini kamaytirish boʻyicha global harakat” mavzusida tadbir oʻtkazdi. Unda Ziroat Mirziyoyeva ishtirok etdi.

✓ 23–26-sentyabr kunlari “CAEx Uzbekistan” majmuasida “ICTWEEK Uzbekistan-2025” axborot-kommunikatsiya texnologiyalari haftaligi oʻtkazildi.

✓ Singapurda oʻtgan parasuzish boʻyicha jahon chempionatida Yegor Bolotov Oʻzbekiston tarixida ilk bor erkaklar orasida jahon chempioni boʻldi.

1-OKTYABR – OʻQITUVCHI VA MURABBIYLAR KUNI



YAXSHILIK ELCHISI

YANGI ASRNING YANGI QUTBLARI
Bashariyat yaralgandan beri qarama-qarshilik ham bardavom, hozirgacha na jamiyat, na millat, na davlatlar orasidagi ziddiyatlarga barham berishning imkoni boʻlgan emas. Tabiat, koinot, hatto borliqning oʻzi turli qutblardan iborat ekanini inobatga olsak, hamma bir tomonda boʻlishining oʻzi mantiqsizlikday, Yaratganning irodasiga ziddiyat tuyuladi.

Insoniyatning bizga maʼlum boʻlgan oʻtmishi Gʻarb va Sharq, Shimol va Janub, kapitalizm va sotsializm, dindorlik va xudosisizlik, ezgulik va yovuzlik, jaholat va maʼrifat tushunchalari singari qutblanish azaldan mavjud va turli davrlarda har xil koʻrinishlarda namoyon boʻlganidan xabar beradi.

Ilm-fan, sanoat va texnika taraqqiyotiga ulkan turtki bergan XX-asr oʻz poyoniga yetguniga qadar dunyo kapitalistik va sotsialistik lagerlarga boʻlingan holda qutblandi. Har ikki tomondagilar ham haqiqat oʻz tanlovlarida ekaniga shubha qilishmadi. Goh u, goh bu tomonning qoʻli baland kelgan davrlarni koʻrdik. Barcha yutuqlar shu omillarga bogʻlab talqin qilindi. Yangi asr ostonasiga kelib, globallashuv bilan bogʻliq jarayonlar yuzaga chiqa boshladi.

Axborot almashinuvinin tezlashishi, soʻz erkinligi, shaxs daxlsizligi, oshkoralik, jamoatchilik nazoratining kuchayib borishi yangi boshqaruv institutlarining joriy etilishiga olib keldi.

(Davomi 3-sahifada.) ➡

ILM YOʻLI

TARIXNI TIKLASH MASHAQQATI

Akademik Ahmadali ASQAROV bilan suhbat

– Domla, Mustaqillik davri avlodi Siz yozgan darsliklar orqali Vatan tarixidan boxabar boʻldi. Sizing faoliyatingizda ustozlaringiz armoni ushaldi. Ayting-chi, sovetlar tomonidan tahrir qilinib, tanib boʻlmas holga kelgan tarixni tiklash qanday kechgan?

– Ha, men baxtli olimlardanman. Oʻzbekiston Istiqloli tarix fanini ham

mutelik zanjirlaridan xalos qildi. Shu bilan birga, olimlar oldiga milliy tarixni xolis va faktlarga asoslanib tiklash, xalqqa qaytarish vazifasini qoʻydi. Baholi qudrat bu sharaflı ishga hissa qoʻshdik.



(Davomi 5-sahifada.) ➡



Boshlanishi 1-sahifada.

Mamlakatimiz yetakchisi BMT bosh qarorgohida bolalar saratoni va boshqa og'ir kasalliklarga qarshi kurashga bag'ishlangan yuqori darajadagi tadbir o'tkazish tashabbusini bildirdi. Bu orqali turli mamlakatlar, xalqaro tashkilotlar, sog'liqni saqlash muassasalari va yuqori malakali mutaxassislarini birlashtirish, global hamkorlikni mustahkamlash, og'ir kasalliklarga qarshi kurash uchun qo'shimcha mablag' jalb qilish mumkin bo'ladi. Tashabbus O'zbekistonning sog'liqni saqlash sohasidagi islohotlarga sodiqligi va aholi salomatligini muhofaza qilishga qaratilgan izchil sa'y-harakatlarini ko'rsatadi.

O'ZBEKISTON va BMT

SAMARALI HAMKORLIK

Mintaqamiz miqyosida Osiyo xotin-qizlar forumini doimiy platformaga aylantirib, muntazam o'tkazib borish taklifi ilgari surildi. Forum xotin-qizlarning imkoniyatlarini kengaytirish, ularning muammolariga yechim topish va huquqlarini himoya qilish, ilg'or va innovatsion tajribalarni o'rganib borish, mintaqada gender siyosatini takomillashtirish uchun qulay sharoit yaratadi. Ushbu platforma orqali xotin-qizlar o'z fikrlarini bildirishlari, siyosiy o'zgarishlar uchun kurashishlari va jamiyatning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatishlari mumkin.

Davlatimiz rahbari O'zbekistonning tashqi siyosatidagi ustuvor yo'nalishlarga alohida e'tibor qaratdi. Ta'kidlash joizki, O'zbekiston tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri – Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik, barqarorlik va o'zaro manfaatli hamkorlikni ta'minlashdan iborat. Bugungi kunda ushbu maqsadga erishildi, mintaqada siyosiy va iqtisodiy aloqalar tubdan o'zgardi. Yopiq chegaralar, hal etilmagan bahs va nizolar davri tarixda qoldi. So'nggi yillarda mintaqamizda o'zaro savdo, investitsiyalar va transport tashuvlari hajmi besh barobargacha ko'paydi. Qo'shma investitsiya jamg'armalari, chegaralar hududlarida savdo va sanoat zonalarini tashkil etildi, yirik infratuzilma loyihalari amalga oshirilmogda. Markaziy Osiyo davlat rahbarlari Maslahat uchrashuvlari mintaqaviy integratsiyani takomillashtirish yo'lidagi samarali mexanizmga aylandi. Shu nuqtayi nazardan, Bosh Assambleya-ni Markaziy Osiyo mamlakatlarining mintaqaviy sheriklik va iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirishga qaratilgan harakatlarini qo'llab-quvvatlashga doir rezolyutsiyasini qabul qilish tashabbusi ilgari surildi.

O'zbekiston Prezidenti Afg'onistondagi vaziyatga to'xtalar ekan, afg'on xalqining tinch va osuda hayotga bo'lgan intilishini qo'llab-quvvatlash uchun xalqaro hamjamiyatning sa'y-harakatlarini birlashtirishga chaqirib, bu davlatning yakalanib qolishiga yo'l qo'ymaslik o'ta muhimligini alohida ta'kidladi. BMT rezolyutsiyasi xalqaro hamjamiyatni Afg'onistonda qo'llab-quvvatlash va ushbu mamlakatda infratuzilma loyihalarini amalga oshirish uchun sa'y-harakatlarni birlashtirishga chaqirdi. O'zbekiston Prezidentining taklifi Afg'onistonda mintaqaviy iqtisodiy hamkorlikka jalb qilish, iqtisodiy rivojlanishni rag'batlantirish, mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlash va xalqaro hamkorlikni kuchaytirishga qaratilgan muhim qadamdir.

Prezidentimiz xalqaro xavfsizlikni ta'minlash, shu jumladan, Yaqin Sharq va Yevropadagi keskinlik va qarama-qarshiliklarni diplomatik yo'llar bilan yechishga chaqirdi.

Davlatimiz rahbari Markaziy Osiyoda BMTning Global aksiterror strategiyasini bajarish bo'yicha olib borayotgan ishlarni yuqori baholab, bu boradagi hamkorlikni yanada mustahkamlash zarurligini ta'kidladi. Xususan, BMTning Terrorizmga qarshi kurash boshqarmasi bilan hamkorlikda tuzilgan Reabilitatsiya va qayta integratsiya masalalari bo'yicha Mintaqaviy Kengashini Xalqaro kompetentsiyalar markaziga aylantirish taklifi mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Markaz muammoli hududlardan qaytarilgan shaxslarni tinch hayotga moslashtirish bo'yicha tajriba almashish va o'z navbatida, radikalizm va ekstremizmning oldini olishda muhim ahamiyatga ega.

Yana bir muhim tashabbus – BMTning Terrorizmga qarshi kurash boshqarmasining mintaqaviy ofisini O'zbekistonda ochish uchun zarur sharoit yaratishga tayyorlik bildirilganidir. Bu O'zbekistonning xalqaro hamjamiyat bilan terrorizmga qarshi kurash sohasidagi hamkorlikni yanada chuqurlashtirishga sodiqligini namoyon etadi. Mazkur ofisning ochilishi mintaqada terrorizmga qarshi kurash bo'yicha ma'lumot almashinuvini



jadallashtirish, tahliiliy ishlarni kuchaytirish va tegishli chora-tadbirlarni samarali amalga oshirishga xizmat qiladi.

“Barqaror rivojlanish maqsadlari uchun o'zaro transport bog'liqligini mustahkamlash” mexanizmini joriy etish tashabbusi global iqtisodiyotning barqaror o'sishida transport aloqalarining muhim ahamiyatini anglashga asoslangan. Xalqaro tranzit yo'llari nafaqat tovarlar va xizmatlar harakatini ta'minlaydi, balki mamlakatlar o'rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash, investitsiyalarni jalb qilish va yangi ish o'rinlarini yaratishga ham xizmat qiladi.

Ushbu global mexanizmning joriy etilishi transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish, logistika markazlarini qurish, mavjud yo'llarni ta'mirlash va yangilarini barpo etish, shuningdek, temir yo'l va havo transportini rivojlantirish, tranzit jarayonlarini soddalashtirish, bo'xona tartib-qoidalarini optimallashtirish, chegaralardagi tekshiruvlarni tezlashtirish va elektron hujjat aylanishini joriy etish, xalqaro tranzit yo'llarida xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlarni kuchaytirish, terrorizm va transmilliy jinoyatchilikka qarshi kurashish ishiga ko'maklashadi.

O'zbekiston Prezidenti iqlim o'zgarishi va barqaror rivojlanishga oid global muammolarga yechim izlashga chaqirdi. Orol dengizi qurishining salbiy oqibatlariga to'xtalib, ushbu ekologik fojia jahon hamjamiyatining doimiy diqqat markazida bo'lishi lozimligini ta'kidladi. O'zbekiston Orolbo'yi ekotizimini qayta tiklashga qaratilgan ishlarni izchil davom ettirmogda va so'nggi yillarda dengizning qurigan tubida – 2 million gektar maydonda sho'rqa chidamli cho'l o'simliklari ekildi. 2030-yilgacha ushbu hududning 80 foiz qismida yashil qoplamalar hosil qilish rejalashtirilgan.

Suv resurslarining taqchilligi muammosi ham e'tibordan chetda qolmadi. O'zbekistonda Suvni tejash bo'yicha butunjahon forumini o'tkazish tashabbusi bildirildi. Mazkur anjuman yakunlari bo'yicha Suv inqirozini barqaror taraqqiyot uchun jiddiy tahdid sifatida belgilash va bu borada global darajada innovatsiya texnologiyalarini joriy etish uchun alohida “yo'l xaritasi”ni qabul qilish mo'ljallanmogda.

Ekologik o'zgarishlarning yana bir salbiy ko'rinishi – iqlim migratsiyasining kuchayib borayotganidir. Prezidentimiz ushbu yo'nalishda aniq xalqaro mexanizmlar va huquqiy baza hanuzgacha yaratilmaganini qayd etdi. Shu munosabat bilan bu jiddiy masalada keng xalqaro sheriklik va muvofiqlashtirilgan siyosat yuritish bo'yicha Global pakt qabul qilishga chaqirdi. Prezidentimiz yosh avlodning kelajakdagi roliga muhim urg'u berib, yoshlarga tinchlik, gumanizm, do'stlik kabi ezgu qadriyatlarni singdirish orqali dunyo farovonligiga erishish mumkinligini ta'kidladi. O'zbekistonning bu boradagi tashabbuslari, xususan, “Jahon yoshlarining tinchlik sari harakati”ni ta'sis etish taklifi hamda Islom sivilizatsiyasi markazining ochilishi kabi muhim loyihalar O'zbekistonning yoshlar siyosatiga, tinchlikparvarlikka va islom ma'rifatini targ'ib qilishga qaratilgan strategik yo'nalishlarini aks ettiradi.

O'zbekiston rahbarining BMT doirasida ilgari surgan taklif va tashabbuslari xalqaro miqyosda tinchlik va xavfsizlikni saqlash, inson huquqlarini himoya qilish, barqaror taraqqiyotga erishish maqsadlariga ulkan amaliy hissa bo'lib qo'shilayotgani dunyoning nufuzli ekspertlari tomonidan alohida e'tirof etilmogda.

Shavkat Mirziyoyev tashrif davomida BMT Bosh kotibi Antoniu Guterish, AQSH Prezidenti Donald Tramp, Koreya

Respublikasi Prezidenti Li Chje Myon, Iordaniya Podshohi Abdulla II ibn al-Husayn, Chexiya Respublikasi Prezidenti Petr Pavel, Albaniya Prezidenti Bayram Begay, shuningdek, XV F boshqaruvchi direktori Kristalina Georgiyeva, Jahon banki guruhi prezidenti Ajay Banga va Jahon savdo tashkiloti bosh direktori Ngozi Okondjo-Iweala bilan ham muzokaralar o'tkazdi.

O'zbekiston Prezidenti AQSH Prezidentining Janubiy va Markaziy Osiyo bo'yicha maxsus vakili Serjio Gorni, AQSH Kongressidagi “O'zbekiston bilan hamkorlik bo'yicha kokus” raisi, kongressmen Trent Kellini qabul qildi.

Tashrifning ishbilarmonlik dasturi ham sermazmun bo'ldi. O'zbekiston yetakchisi AQSH ishbilarmonlari ishtirokida davra suhbat, shuningdek, qator yetakchi transmilliy kompaniyalar, korporatsiyalar, investitsiya fondlari va moliyaviy institutlar – “Traxys”, “FLSmith”, “McKinsey”, “Go Green Partners”, Kolorado geologiya maktabi, “BlackRock”, “Boeing Global”, “Franklin Templeton”, “Citigroup”, “Air Products”, “BNY”, “Jefferies”, “NASDAQ”, “Oppenheimer” va boshqa ko'plab kompaniyalar rahbarlari bilan muzokaralar o'tkazdi.

Davlatimiz rahbarining yurtimiz bo'yab va xorijga qilgan safarlaridagi eng muhim omillardan biri – xalq bilan muloqot. Shavkat Mirziyoyev AQSHga amaliy tashrifini yakunlar ekan, an'anaga ko'ra, ushbu mamlakatda mehnat va istiqomat qilayotgan vatandoshlarimiz, shuningdek, AQSHning nufuzli universitetlarida tahsil olayotgan “El-yurt umidi” jamg'armasi stipendiatlari bilan uchrashdi.

Ishtirokchilar O'zbekiston va AQSH o'rtasidagi savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, ilmiy va ta'lim aloqalarini kengaytirish va mustahkamlash, milliy iqtisodiyotning ustuvor sohalariga AQSHning ilg'or texnologiyalarini joriy etish, tibbiyot, transport va logistika sohalarida innovatsiyalarni ilgari surish, mamlakatimizda marketpleyslarni rivojlantirish bo'yicha o'z takliflarini bildirdilar. Davlatimiz rahbari yig'ilganlarga Vatanimiz taraqqiyotiga qo'shayotgan hissasi uchun minnatdorlik bildirib, aytilgan barcha taklif va tashabbuslar mamlakatimiz vazirlik va idoralari tomonidan puxta o'rganib chiqilishi, eng istiqbolilari esa amaliyotga tatbiq etilishini ta'kidladi.

O'zbekiston Prezidenti AQSHda “El-yurt umidi” stipendiatlari soni 500 nafardan oshganiga alohida e'tibor qaratdi. Iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularning bilim va tajribasini ona yurtda qo'llash uchun imkoniyat yaratish davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biri ekanligini ta'kidladi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev talabalarga o'qishda va kelgusidagi kasbiy faoliyatlarida muvaffaqiyatlar tilab, davlatimiz yoshlarning tashabbuslariga doimo ochiqligi va ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga tayyor ekanligini ta'kidladi.

O'z navbatida, uchrashuv ishtirokchilari O'zbekiston yetakchisiga xorijdagi vatandoshlar va yoshlarga ko'rsatilayotgan e'tibor, ularning salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun yaratilayotgan sharoit va imkoniyatlar uchun minnatdorlik bildirib, Vatanimiz ravnaqiga yanada ko'proq hissa qo'shishga tayyorligini bildirdilar.

Shunday qilib, Prezidentimizning BMT Bosh Assambleyasining 80-yubiley sessiyasidagi ishtiroki hamda ma'ruzasi, shuningdek, qator davlat rahbarlari bilan muzokarasi, AQSHda faoliyat olib borayotgan yurtdoshlarimiz bilan uchrashuvi ma'no-mohiyati bilan tarix zarvaraqalariga zarhal harflar bilan bitildi.

Abduvali SOYIBNAZAROV,
siyosiy sharhlovchi

E'TIROF

SIYOSIY IRODA,
QAT'IY POZITSIYA

Bugun zamonaviy sivilizatsiya sharoitida jahon ijtimoiy-siyosiy jarayonlari tobora jiddiy tus olmoqda. Davlatlar va mintaqalararo munosabatlarda o'zaro ishonchning darz ketishi, ozuq-ovqat tanqisligi, umumsavoyaraviy ekologik tahdidlar insoniyatni kutilmagan muammolarga duch qilmogda.



Narzulla JO'RAYEV,
siyosiy fanlar doktori,
professor

Ana shunday qarama-qarshiliklar oqimida O'zbekiston o'zining nazariy va amaliy jihatdan asoslangan qat'iy siyosiy pozitsiyasini namoyon etib, insoniyat istiqboli bilan bog'liq muammolarni hal qilishga doir konseptual g'oyalarni ilgari surmogda. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 80-sessiyasida qilgan ma'ruzasi buning yorqin misoli bo'ldi, desak, ayni haqiqatdir.

Mamlakatimiz rahbari mintaqalar va davlatlarning munosabatlarini yaxshilik sari burishda BMTning roli va majburiyatini oshirishga oid jiddiy mulohazalarni ilgari surdi. Jumladan, “Hozirgi kunda dunyoda xalqaro institutlarning o'rni va roli zaiflashmogda, qarama-qarshilik, nizo va urushlar kuchaymogda, texnologik va ijtimoiy tengsizlik keskin oshmogda, iqtisodiy va gumanitar inqirozlar ortib bormogda. Bularning hammasi mutlaqo yangi, xavotirli geosiyosiy voqelikni vujudga keltirmogda”, deya alohida ta'kidladi. Muhtaram Prezidentimiz bu bilan jahonning yetakchi xalqaro tuzilmasi hisoblanmish Birlashgan Millatlar Tashkilotining faoliyatini tubdan isloh qilish zarurligini dolzarb masala sifatida kun tartibiga qo'ydi. Mana shu holatning o'zi, aytish mumkinki, Yangi O'zbekiston – jahon hamjamiyatining eng faol, dunyoviy masalalarni hal qilishda o'ziga xos siyosiy qudrat, siyosiy jasorat va tashabbusga ega davlatiga aylanganini ko'rsatadi.

O'zbekiston rahbari zamonaviy xavf-xatarlarga qarshi samarali kurashish, xususan, rivojlanayotgan davlatlar manfaatlarini himoya qilish maqsadida BMT Xavfsizlik Kengashini transformatsiya qilish va uning ta'sir kuchini oshirish maqsadida tuzilma tarkibini kengaytirish zarurligini ta'kidladi.

Prezidentimiz mintaqaviy hamjihatlik va taraqqiyotning muhim omili sifatida yaqin qo'shni davlatlar bilan sog'lom hamkorlik muhim rol o'ynashini va bu masala Markaziy Osiyo mintaqasida O'zbekiston tashabbusi bilan ijobiy hal etilganini alohida qayd etdi. “Bugungi kunda Yangi Markaziy Osiyoni shakllantirish jarayoni boshlandi. Mintaqamiz o'zining hamjihatligi, barqarorligi, o'ziga xosligi bilan xalqaro munosabatlarda tizimida alohida subyektlar sifatida tobora mustahkam o'rin egallamogda”, dedi mamlakatimiz rahbari.


Darhaqiqat, Markaziy Osiyo butunlay yangi tafakkurdagi azaliy qon-qardoshlik, o'zaro bir-birini tushunish, anglash va bir-biriga yon berish fazilatlarini namoyon etmogda. Prezidentimiz tashabbusi bilan mintaqaviy hamkorlikning butunlay yangi davri boshlandi. Azaldan bir-biriga ko'z-u qoshday yaqin bo'lgan xalqlar davlatlar nuqtayi nazaridan o'z suverenitetini hurmat qiladi, bir-birining mustaqilligini tan oladi, chegaralar dahlsizligini ta'minlaydi. Biroq qardoshlik va hamkorlik tuyg'ulari chegara bilmaydi. Bu o'zaro bag'rikenglik va bir-birini tushunish, konsensus holatining yangi tarixiy sharoitlardagi ibratli ko'rinishidir.

O'zbekiston rahbarining ushbu yubiley sessiyasidagi nutqi, aytish mumkinki, davlatimizning jahon hamjamiyatidagi mavqeyi va nufuzini oshirdi. Dunyoning eng faol davlati sifatidagi siyosiy irodasini, qat'iy pozitsiyasini yana bir bor namoyon etdi.

JAHON AYVONIDA

XANTINGTON DAVOSI TOPILDI

Dunyodagi eng og'ir irsiy nevrologik kasalliklaridan biri – xantington ilk bor dori yordamida davolandi. Bu haqda London qirolik kolleji universiteti olimlari tadqiqot natijalariga tayanib ma'lum qildi.



Bugungacha hech qanday davosi bo'lmagan bu genetik kasallikda bemor aqliy va jismoniy imkoniyatlarini sekin-asta yo'qota boshlaydi. Odatda, bemor alomatlar boshlanganidan 15–20 yil o'tib hayotdan ko'z yumadi.

AQSHning “uniQure” kompaniyasi tomonidan

ishlab chiqilgan AMT-130 gen terapiyasi sinov tariqasida 29 bemorda qo'llanilgan. Natijada, ularning boshqacha 3 yil davomida 75 foiz yaxshilangan. Shogqacha aytganda, odatda 1 yilda yuzaga keladigan kasallik alomatlari yangi terapiya natijasida 4 yilga cho'zilgan.

JOGORKU KENESH TARQATILDI

Qirg'iziston parlamenti – Jogorku Kenesh – o'zini o'zi tarqatish to'g'risida qaror qabul qildi. Bu haqda mamlakat deputatlari ma'lum qildi.

Deputat Ulan Primovning ta'kidlashicha, ketma-ket ikki yirik saylov o'tkazishdagi murakkablik va xavflar ushbu tashabbusga asos bo'lgan. Parlament saylovlari 2026-yilning noyabr oyida, prezidentlik saylovlari esa 2027-yil yanvarida o'tkazilishi rejalashtirilgan edi.



FAVQULODDA YIG'ILISH

AQSH prezidenti Donald Trampning Afg'onistondagi Bagram harbiy bazasini qaytarib olish bo'yicha talabidan so'ng “Tolibon” yetakchisi Haybatulloh Oxundzoda zudlik bilan favqulodda yig'ilish chaqirdi. Bu haqda “Al Arabiya” o'z manbalariga tayanib xabar berdi.



Ma'lumotlarga ko'ra, “Tolibon” rahbariyati yaqin kunlarda Qandahor shahrida yig'ilishi rejalashtirilmogda. Unda Mudofaa vaziri Yoqub Mujohid, Tashqi ishlar vaziri Amirxon Muttaqiy va razvedka rahbarlari ishtirok etadi. Ular oldinroq yopiq eshiklar ortida bir necha uchrashuvlar

o'tkazgan va Trampning talabini qat'ian rad etishga kelishib olgan.

SOBIQ PREZIDENT SURATI
O'ZGARDI

Tramp Oq uyda joylashgan “Prezidentlar shon-shuhrati alleyasi”dagi Baydenning portretini avtomatik imzo qo'yuvchi qurilma surati bilan almashtirdi. Videoni AQSH prezidentining yordamchisi Margo Martin e'lon qildi.



Donald Tramp bir necha marta Jo Baydenni hech bir hujjatni shaxsan imzolamaganlikda va buning o'rniga avtomatik imzo qo'yuvchi qurilmadan foydalanaganlikda ayblagan.

“Bu qurilmadan esa xohlagan kishi Baydenning o'zi bilmagan holda foydalanishi va istalgan hujjatni imzolashi mumkin bo'lgan”, degan edi AQSHning amaldagi prezidenti.

POYTEXT KO'CHIRILADI



Indoneziya hukumati poytaxtni Jakartadan Nusantaraga ko'chirish jarayonini 2028-yilgacha yakunlashni mo'ljallamogda. Bu haqda mamlakat prezidenti ma'muriyati rahbari Muhammad Qodariy ma'lum qildi.

“Agar faqat prezident qarorgohi bo'lib, qonun chiqaruvchi va sud idoralari bo'lmasa, hukumat qanday samarali faoliyat yuritishi mumkin? Hokimiyatning uchala tarmog'i ham Nusantarada joylashishi shart”, deya uning so'zlarini keltirdi “Jakarta Globe” gazetasi.



TILLA SANDIQ



“Tilimizni... tirgizmak kerak”

Ma'lumki, O'rxun-Enasoy yozma yodgorliklari turkiy tilning sof namunasi sanaladi. Turkiy xalqlar adabiyotida arab va fors tillaridan olingan so'zlar eski turk tili davrida paydo bo'la boshlagan. Xususan, arabcha so'zlar Yusuf Xos Hojibning “Qutadg'u bilig” dostonida 5–7 foizni, Ahmad Yugnakiyning “Hibatul haqoyiq” asarida 15–20 foiz va Nosiriddin Rabg'uziyning “Qisasi Rabg'uziy” asarida 39 foizni tashkil etadi. XIV–XV asrdan boshlab turkiy tilga bunday so'zlar ko'plab kira boshlagan.



**Berdag YUSUF,
O'zRFA O'zbek tili va folklori instituti katta ilmiy xodimi, filologiya fanlari nomzodi**

Alisher Navoiy ham davr taqozosiga ko'ra arab va fors tillaridagi so'zlardan unumli foydalangan. Masalan, Emir Najib eski o'zbek tili haqida fikr bildirar ekan: “Boshqa tomondan bu til arab va fors tillari hisobiga ancha boyidi. Navoiyda u o'zining yuksak gullagan davriga yetdi”, deb yozadi. Taniqli turk tilshunosi M.Ergin XV asr usmonlacha, ya'ni eski turk tili haqida quyidagilarni bayon etadi: “Bu davr Turkiya turkchasining begona unsurlar tomonidan tom ma'nosini bilan istilo etilayotgan, arab va fors tillari bilan butunlay o'rab olingan davridir”. Shu o'rinda, A.Axundovning fikrini ham keltirib o'tamiz: “Eski ozarbayjon tili lug'at fondining deyarli 90 foizi fors va arab tillaridan o'zlashgan so'zlardan tashkil topgan”.

Ko'rinib turibdiki, bu ikki tildan yangi so'zlarni qabul qilish oltay tillari oilasi uchun umumiy hol bo'lgan. Shuning uchun ham, Alisher Navoiy asarlariga yozilgan lug'atlardagi bosh so'zlarning aksariyati arabcha va forscha so'zlardan tashkil topgan. Masalan, besh yuz sahifali “Navoiy tili lug'ati”ning (2018-yil) faqat o'n bir sahifasi turkcha so'zlardan iborat, xolos.

Xo'sh, u holda “Alisher Navoiy ona tili sofligi uchun kurashgan”, degan fikrni qanday tushunmoq lozim?

Buni shunday tushunmoq lozim. Hazrat Navoiy har bir til boshqa tildan so'z olish orqali boyib borishi, bu barcha tillarga xos xususiyat ekanini yaxshi anglagan. Asarlarida fors, arab va boshqa tillardan foydalanar ekan, ularning turkiy sinonimlarini ham keltirib, turkiy til boyligini ko'rsatib bergan. Agar u davrda fors tili mintaqamizda asosiy adabiy til bo'lganini e'tiborga olsak, qiyoslash uchun ikki tildagi so'zlarni yonma-yon qo'yishdan ortiq yechim bo'lmagan oydinlashadi. Buyuk mutafakkir bag'rikenglik va adolat yuzasidan turkiy tilda uchramaydigan, uning boyishiga xizmat qiladigan chet so'zlarni olib kirishdan qochmaydi. Eng muhimi, Alisher Navoiy o'sha davrdayoq iste'moldan chiqib ketgan, bor bo'lsa ham qo'llanmayotgan turkiy so'zlarni saralab, ularni betakror g'azal va dostonlarida shunday mahorat bilan qo'llaydiki, so'zlar beixtiyor xalq tiliga qaytadi va mustahkam o'rin egallaydi. Shu tariqa, ulug' bobomiz turkiy til sofligini saqlashga beqiyos hissa qo'shadi.

Bu yerda purizm omili o'rtaga chiqadi. Faqat purizmni salbiy ma'noda, “tilni chet so'zlardan, varvarizm, vulgarizmlardan tozalashga konservativlik bilan ortiqcha berilib ketish” deb tushunmaslik kerak. O'z o'rinda, purizmning ona tilini chet so'zlardan himoya qilish va til sofligini saqlashga qaratilgan ijobiy ma'nosini ham inobatga olish lozim.

O'tgan asrning 20-yillarda rus tilidan kirgan so'zlar o'rni o'zbek tilining ichki qonun-qoidalarida asosida yaratilgan so'zlarni ishlatishga harakat bo'lganini mutaxassislar yaxshi biladi. Masalan, samolyot “uchqich”, elektr lampasi “simchiroq”, samovar “oziqaynar” kabi. Bunday harakat bir vaqtlar rus tilida ham kuzatilgan. Mazkur tilda samolyot, kislrod, vodorod kabi so'zlar yasalgan. Biz bilamizki, mazkur so'zlar rus tili

lug'atidan mustahkam o'rin olgan. Ba'zi soha terminlari, masalan, *kelishik, ot, son, olmosh, ko'makchi, bog'lovchi, yuklama* kabi tilshunoslik terminlari tilimizga uzil-kesil o'nashgan. Lekin o'zbek tiliga qabul qilingan aksar neologizmlar sobiq Markaz ko'rsatmasiga binoan tildan chiqarib tashlangan.

Yaqinda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Atamalar komissiyasi yangi so'z va atamalarining bir qismini ko'zdan kechirib, ularni rasmiy muomalaga kiritish yuzasidan qaror chiqardi. Atamalar komissiyasi a'zolarining chet tillarga oid o'zlashma so'z va atamalarini o'zbek tili me'yorlariga muvofiqlashtirish bo'yicha bildirgan taklifi ma'qullangan. Ta'kidlash joizki, tavsiya etilgan so'zlar ilmiy asoslangan, o'zbek tilining qonun-qoidalariga muvofiqdir.

Albatta, o'zbekchadagi ajnabiy so'zlardan qutulish uchun o'zbek tilining o'z qonun-qoidalarida asosida yangi so'zlar yasash zarurati mavjud. Bir vaqtlar tilimizga rus tili orqali kirgan “aysberg” so'ziga muvobil sifatida tasdiqlangan sof o'zbekcha *muztog'* so'zi “aysberg”-ning ma'nosini aniq-tiniq ifodalaydi. Shuningdek, ruscha “внедорожник” so'ziga yo'llanmas, “доставка” – yetkazish, “маркировка” – tamg'alash, “коридор” – yo'lak, “навигатор” – yo'llagich, “отвертка” – buragich, “полик” – to'shama kabi so'zlar tegishli ma'noni aniq va lo'nda ifoda etadi.

Rus tili orqali o'zlashgan, asli fransuzcha “avans” o'rni o'lingan *bo'nak* so'zi “O'zbek tilining izohli lug'ati”da birinchi va ikkinchi ma'nosini “tar. (tarixga oid, tarixiy termin)” belgisi bilan berilgan. Uning uchinchi ma'nosi: “Maosh hisobidan oy oxirida hisob-kitob qilish sharti bilan oldindan beriladigan pul; avans” tarzida qayd etilgan. Demak, *bo'nak* hozir ham ishlatiladi. Uni bemalol *avans* o'rinda qo'llash mumkin.

Parol so'ziga muvobil sifatida *o'ron* so'zi berilgan. Bu so'z XIII asrda yaratilgan “O'g'uznoma” asarida “harbiy nom, *parof*” ma'nosida uchraydi. “Boburnoma”da aytilishicha, har bir qavmning o'z o'roni bo'lgan. Demak, eski o'zbek tilida *o'ron* so'zi keng qo'llangan.

Umuman, o'zbek tili tarixining ma'lumi davrida ishlatilgan, ammo keyinchalik unutilgan sof o'zbekcha so'zlarni qayta muomalaga kiritish maqsadga muvofiqdir. Abdurauf Fitrat aytganiday: “Tilimizning adabiyiligi arabiylikda emas, o'zidadir. Shuni tirgizmak kerak”.

Yana bir muhim fikr. Bilamizki, har qanday tilning lug'at tarkibi boyishida shevalarning hissasi katta. O'zbek tili turkiy tillar ichida eng ko'p shevaga ega. Afsuski, hali barcha sheva so'zlar yig'ilib ularning lug'ati tuzilmagan. Agar bu ish amalga oshirilsa, u holda adabiy til uchun zarur bo'ladigan ko'plab so'zlarni shevalardan topish mumkin bo'ladi.

Unutmaslik kerakki, tarixdan yoki shevalardan so'z izlaganda, albatta, mazkur so'zning etimologik jihatdan turkiy-o'zbek tiliga oid ekaniga, ya'ni sof o'zbek tiliga mansubligiga alohida e'tibor berish, har jihatdan o'rindidir.

Boshlanishi 1-sahifada.

Axborot almashtiruvining tezlashishi, so'z erkinligi, shaxs daxlsizligi, oshkoralik, jamoatchilik nazoratining kuchayib borishi yangi boshqaruv institutlarining joriy etilishiga olib keldi.

Bugungi dunyoning yangi qiyofasiga teranroq razm solgan kishi, insoniyat uchun chin ma'nodagi qutblanish aslida biz o'ylagandan ko'ra boshqacharoq, bir-biri bilan yovlashayotgan davlatlar orasida emas, ilm-ma'rifatga yuz burgan yo'jaholatga botganlar orasida sodir bo'layotganini anglaydi. Globallashayotgan dunyoning yangi qutblari aynan ilm-ma'rifat va jaholatdadir. Qolgan barcha hodisalar shu omillar atrofida aylanmoqda. Oqillar esa, insoniyat uchun najot ilm-fanda ekanini allaqachon anglab, o'z xalqini shu qutb atrofida birlashishga chorlamogda.

Ha, aynan shunday. Bugungi dunyo – boshqacha dunyo. Hozir biror davlatning hududiy yaxlitligiga daxl qilish, uning yerosti va yerusti boyliklariga kuch bilan ega chiqish, mamlakatning tabiiy va inson resurslaridan majburiy foydalanish oson emas. Ammo imperialistik manfaatlarining jirkanch qiyofasi batamom yo'q bo'lgan emas. Istilochilik ham aslo barham topmadi. Bu jarayon o'ta puxta, inkor etib bo'lmas yoki bahsli yoxud ikkiyoqlama haqiqatlarni o'zida aks ettirgan holda, afsuski, bugungi kunda ham davom etmogda.

Demakki, qaramlikning yangi-yangi ta'sirlaridan xoli bo'lish uchun ilm-ma'rifatni rivojlantirish shart. Bu – sog'lom fikrli kishilardan iborat jamiyatlar va mamlakatlar intilayotgan maqsad. Bu jahon sahnasida inqirozga uchramaslik uchun millat ilm-fanda taraqqiy etishi birlamchi vazifa.

Mana shu sabablar tufayli bugungi dunyoning ma'naviy qiyofasi o'zgarmogda. Aniq qilib aytganda, insoniyat ikkiga bo'lingan. Bir tomon sog'lom aqlga tayangan holda ilm-ma'rifatning taraqqiyi yo'lida bo'lsa, boshqa tomon jaholatga yetaklovchi turg'unlikni tanlagan. Mana shu holni biz ramziy ma'noda dunyoning yangi qutblari deb atadik...

ILM BO'LMASA, HIMOYA HAM BO'LMAYDI

Bugunning achchiq va ochiq haqiqati shu. Ilm-fani rivojlanmagan davlatlar rivojlangan mamlakatlar uchun iste'molchi sifatidagi sarmoya manbayi bo'lib qolaveradi. Misol



sifatida aytganda, bir mamlakatda 1 gektar yerda 5 tonna g'allayetishiriladi, ikkinchi mamlakatda esa 15 tonna. Birinchi davlatda agronomiya bo'yicha yetarli ilm bo'lmagan uchun hosildorlik sirini bilmaydi. Lekin bu davlat fuqarolarining yillik g'allayeste'moli 7,5 tonnani tashkil etadi. Chunki ilmsizlik sababli iste'mol mahsulotlarining xilma-xilligi ham past bo'ladi. Keyingi davlat iste'moli esa 3 tonna, bunga sohada ilmi rivojlantirish, iste'mol mahsulotlarining xilma-xilligini oshirish tufayli erishilgan.

Xo'sh, kim yaxshi daromad qiladi? Albatta, birinchi davlat emas. Negaki, yillik iste'mol ehtiyojini qondirish uchun 5 tonna ustiga yana 2,5 tonna g'allayeste'moli lozim. Bunga mablag' kerak. Mablag' topish uchun tabiiy gaz, neft, oltin, uran yoki boshqa

bir boylikdan voz kechishga to'g'ri keladi.

Bir tafakkur qilib ko'raylik. Bu holat nimadan darak beradi – bu ilm-fan rivojiga e'tibor qaratmagan jamiyat hamisha ijtimoiy-iqtisodiy himoyaga muhtoj bo'lib qolaverishidan dalolat emasmi?!

Bu o'rinda tashqi tajovuzdan himoyalalanish haqida gapirish ham ortiqcha.

Ilm rivojlangan davlatlarda manzara tamom boshqacha. Masalan, ilm sabab tomchilatib sug'orish tizimi joriy etilgan mamlakatlarda oziq-ovqat yetishtirish misli ko'rilmaganda darajada ortgan. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksporti oshib, oziq-ovqatdagi import hajmi minimal darajaga tushgan. Bundan ko'rilgan daromad yana ilm-fan rivoji uchun sarflanadi va mamlakat yanada rivojlanib boraveradi. Ilm-hunarda loqayd, jaholat qutbida qolib ketayotganlar haqida bunday deb bo'lmaydi, albatta.

HAMMASI MAKTABDAN BOSHLANADI

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ilm-ma'rifat taraqqiyotisiz jamiyatning barqaror kelajagi yo'qligini qayta-qayta ta'kidlagani holda, ta'lim tizimini rivojlantirishni davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylantirayotgani bejiz emas. Chunki barcha islohotlar maktabdan, barcha ezguliklar maktabdan, barcha muvaffaqiyatlar ham maktabdan boshlanadi. Shu bois, umumta'lim maktablarida zamonaviy o'quv dasturlari, yangi darsliklar, innovatsion metodikalar jadallik bilan joriy etilmogda. Maktablarni rekonstruksiya qilish, yangi binolar qurish, zamonaviy laboratoriyalar bilan jihozlash ishlari qizg'in tus olgan. Bu esa ta'lim sifatiga to'g'ridan to'g'ri ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Prezident maktablari, ijtimoiy-iqtisodiy, texnik va gumanitar fanlarga ixtisoslashgan maktablar ko'paymogda. Xalqaro standartlar asosida ta'lim berish, xorijiy tillar, AITI va fanlarni o'zaro uyg'un o'qitish, nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog'lash, yoshlarda tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, muammoni yechish, innovatsion yondashuv ko'nikmalarini shakllantirishga alohida urg'u beradigan bu maktablar kelajakdagi yetuk kadrlar uchun “intelektual fabrika” vazifasini bajarishiga ishonchimiz komil. Ayni vaqtda, YUNESKO, Jahon banki, Islom taraqqiyot banki kabi nufuzli xalqaro tashkilotlar ham O'zbekistonning ta'lim islohotlarini yuksak e'tirof etayotganini ta'kidlash joiz.



Biz Uchinchi Renessans masalasini strategik vazifa sifatida oldimizga qo'yib, uni milliy g'oya darajasiga ko'tarmoqdamiz. Biz maktabgacha ta'lim va maktab ta'limi, oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimi hamda ilmiy-madaniy muassasalarni bo'lg'usi Renessansning to'rt uzviy halqasi deb bilamiz. Bog'cha tarbiyachisi, maktab muallimi, professor-o'qituvchilar va ilmiy-ijodiy ziyolilarimizni esa yangi Uyg'onish davrining to'rt tayanch ustuni deb hisoblaymiz.

Shavkat MIRZIYOYEV



Abdulhamid MUXTOROV

olayotgan umumiy maoshi 20 million so'mgacha yetmogda. Bu hol kelgusida har bir maktabda kuzatilishi uchun barcha zarur vositalar ishga solinayotganiga guvohmiz.

“Taraqqiyot strategiyasi” markazi taqdim etgan ma'lumotlarga ko'ra, sohadagi islohotlar natijasida 2023-yili maktabgacha ta'lim bilan qamrov darajasi 27,7 foizdan 67 foizga, maktablardagi malakali oliy ma'lumotli o'qituvchilar ulushi 81,8 foizdan 87,8 foizga, yoshlarni oliy ta'lim bilan qamrov darajasi 9 foizdan 38 foizga yetkazilgan. Taraqqiyot strategiyasi doirasida 2026-yilga qadar maktabgacha ta'limga qamrov darajasini 80 foizga yetkazish, 7 mingdan ziyod yangi nodavlat MTTLarni tashkil etish, xalq ta'limi tizimida qo'shimcha 1,2 million o'quvchi o'rini yaratish, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatining boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun bepul ovqatlanish bo'yicha yo'lga qo'yilgan ijobiy amaliyotni barcha viloyatlar va Toshkent shahri maktablarida ham joriy etish ko'zda tutilgan. Oliy ta'limda qamrov darajasini esa 50 foizga, nodavlat OTMLar sonini kamida 50 taga yetkazish belgilangan.

Amalga oshirilayotgan ta'lim siyosati, oliy ta'limni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi, tayyorlov sinflari formal ta'limga kiritilib, umumiy ta'limning 11 yildan 12 yilga uzaytirilishi, maktabgacha ta'lim muassasalari uchun rahbar va mutaxassislarni qayta tayyorlash, sun'iy intellekt va multimedia

yuz bermoqda. So'nggi yillarda ijtimoiy ahamiyatga ega eng muhim o'zgarishlardan biri, hech shubhasiz, o'qituvchi va o'quvchilarning paxta terimiga majburiy jalb etilishiga barham berilgani bo'ldi desak, ayni haqiqatdir. Bu hodisaning ijobiy natijalari haqida ko'p gapirish mumkin. Shaxsan O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan o'qituvchi va o'quvchilar majburiy mehnatining bekor qilinishi sababli, endilikda o'qituvchi o'z vazifasi – dars berish bilan jiddiy shug'ullanmogda. O'quvchilar o'qishdan uzilib qolmayotgani uchun ta'lim sifatining oshishi kuzatilmogda. Bundan tashqari, O'zbekiston xalqaro maydonda ijobiy nufuzga ham ega bo'ldi.

Maktabda boshlangan islohotlar yaqin kelajakda jamiyatda ma'naviy yuksalishni ta'minlab, iqtisodiy va milliy taraqqiyotga sabab bo'lishini tasavvur qilishning o'zi quvonchli. Axir, dunyoga uyg'oq nigoh bilan qaragan jadid ma'rifatparvarlarining ham eng ulug' orzu-amoli shu emasmi!!

GAPNING SIRASI...

Agar ustozning qo'lidagi kitob, sinfdagi o'quvchining ko'zidagi nur qadrlansa, bunday jamiyatda jaholatga o'rinqolmaydi. Ilm-ma'rifat qutbi atrofida jam bo'lgan xalqning yo'li hamisha ravon, kelajagi mudom porloqdir. Ilm-ma'rifatga suyangan xalq har qanday qiyinchilikni yengib, o'z kelajagini o'zi qurishga qodir bo'ladi.

Bugun baralla aytish mumkinki, Yangi O'zbekistonda ezgu islohotlarni amalga oshirayotgan Inson, hech shubhasiz, Vatanga yaxshilik sog'ingan Insondir. Bugun jonajon Vatanimizda yangrayotgan har bir chaqiriq faqat xalq manfaatiga qaratilgan. Har bir tashabbus, har bir qaror, ayniqsa, ta'lim sohasidagi tub islohotlar – bugungi va ertangi avlodning baxtli kelajagi uchun qo'yilayotgan mustahkam poydevordir.

Ustoz qadrlangan joyda millat qadr topadi, ilmga e'tibor berilgan yurt Vatan yuksaladi. Bu haqiqatni barcha yurtdoshlarimizga anglatishni istagan Insonning yoshlarimizga aytgan o'tli da'vatiga quloq tuting: “Hech qachon o'qishdan, izlanishdan to'xtamang. Vaqt tez o'tadi, ertaga hayotda munosib o'rin topishingiz, zamonga mos mutaxassis bo'lib yetishishingiz uchun bugun o'qishingiz kerak. Men ishonaman, siz mutlaqo yangi avlod yoshlari bo'lib ulg'ayasiz, ota-onangiz, el-yurtigingiz orzusini ro'yobga chiqarasiz. Chunki sizda bilim bo'ladi. Bilim esa, o'tda yonmaydi, suvda cho'kmaydi. Yakka-yu yagona najotimiz – ilm”.

Ulug' ajdodimiz Imom Buxoriy hazratlari ham: “Ilmdan o'zga najot yo'q va bo'lmag'ay”, deya bu haqiqatga dalolat qilgan. Ta'lim-tarbiya rivojiga, ustozlarning nufuzini oshirishga qat'iy intilish yurtimizda ezgu maqsadga aylangan masalaning eng muhim jihatidir.


O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev shunday ta'kidlaydi: “Oqqan daryo – oqaveradi”, deydi dono xalqimiz. Bugun buyuk ajdodlarimizning bebaho merosiga tayanib, mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini yaratish uchun bizda barcha imkoniyatlar mavjud. Hamma gap ana shu imkoniyatlardan qay darajada oqilona foydalana olishimizga bog'liq”.

Izohga ham, qo'shimcha sharhga ham ehtiyoj qoldirmagan bu so'zlar siz-u bizdan faqat ilmga oshno tutinishni talab etadi.



ABADIYAT ORALAB

Xabaringiz bor, bu yilgi Mustaqillik bayrami arafasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekistonda ilm-fan, adabiyot, madaniyat va san'at sohalarini rivojlantirishga ulkan hissa qo'shgan bir guruh marhum olim va ijodkorlarni mukofotlash to'g'risida”gi farmoni e'lon qilindi. Ko'p yillik samarali faoliyati, yorqin va betakror iste'dodi bilan xalqimizning intellektual salohiyatini yuksaltirish, milliy ma'naviyatimizni boyitish, mamlakatimizda ilm-fan, adabiyot, madaniyat va san'at sohalarini rivojlantirish, jamiyatimizda ezgulik va adolat, vatanparvarlik va bag'rikenglik tamoyillarini mustahkamlash yo'lida fidokorona xizmat qilib, avlodlarga qoldirgan boy merosi, sermazmun hayoti va insoniy fazilatlarini bilan el-yurt xotirasidan chuqur joy egallagan marhum olim va ijodkorlarning oliy mukofotlar bilan taqdirlanishi mamlakatimizda inson qadrini ulug'lash, ajdodlar xotirasini e'zozlash va ibratli ishlarini keng targ'ib etish borasida olib borilayotgan ezgu sa'y-harakatlarning izchil davomi, albatta. Jumladan, O'zbekiston xalq shoiri Rauf Parfining “Fidokorona xizmatlari uchun” ordeni bilan taqdirlangani adabiyot ixlosmandlarida katta mamnuniyat uyg'otdi, desak, ayni haqiqat bo'ladi.



Oljas Sulaymon daryosi, yurtimning yana bir ulkan daryosi. Mening tomirlarimda ham shu to'qqizning qoni oqadi. Men bu ulug' daryolarning sohillarida doim sargardonman, tashnaman, ochman, muhtojman...” Bu yerda ma'naviy tashnalik va muhtojlik haqida gap ketmoqda. Rauf Parfi, ayniqsa, yurt va millat hurriyati uchun kurashgan va bu yo'lida qurbon bo'lgan Abdulla Qodiriy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho'lpon “daryo”lariga ichkin bir tashnalikni his qiladi o'zida. Shundan, shoir bu adiblarimiz shaxsiyatiga ayrica bir mehr bilan qaraydi va o'z ijodida ularning badiiy siymosini yaratishga harakat qiladi. Buni anglagan zukko

adabiyotshunos Mahkam Mahmud o'zining “Anvari, Xoqoniy va Bayron izidan...” maqolasida: “Millatparvar, haq so'zli Rauf Parfi kabi shoirlar ijodi tufayli Fitrat, Cho'lpon, Usmon Nosirlar qaytib kelganday bo'ldi”, deb yozadi.

Tabiiy, Rauf Parfi e'tiboridagi eng ulug' shoirlarimizdan biri bu Cho'lpondir. Shoirning Cho'lpon shaxsi va ijodi bilan tanishuvi ham uzoq talabalik yillariga borib taqaladi. “1961-yilning oxirlari edi, — deya xotirlaydi mashhur hofiz Dadaxon Hasan. — O'sha paytlarda men bilan yaqin do'st bo'lib yurgan Tursunali Parfiyev (Rauf Parfi) kunlardan bir kuni qo'limga mashinkalangan, xira tortib ketgan bir dasta she'r tutqazdi. “Buni Abdulhamid Sulaymon Cho'lpon deydiyar”, dedi u g'urur bilan. Men bu nomni sira eshitmagan edim. Qo'lyozmani o'qiy boshladim. “Bu she'rlar boshqacharoq-ku, Uyg'un, Hamid Olimjonlarga o'xshamaydiku?” dedim Tursunaliga. “Shuning uchun Cho'lpon-da!” deb miyig'ida kulib qo'ydi Tursunali.

Bu haqda shoirning o'zi shunday xotirlaydi: “Oltmishinchi yillar. Qatag'on etilgan shoir-larning ijodi bilan tanisha boshladik. Cho'l-ponning asarlarini yashirincha o'qigan-larimizni eslayman... Vatanni, chin vatanni tanish jarayonini so'z bilan gapirib berish qiyin. Fikrlar asta-asta kelgan, hislar sekin-sekin kechgan... ko'ngilda girya kuchayib borgan...”

Darhaqiqat, Rauf Parfining 1965-yili tartib berilgan she'r daftarida Cho'lponning “Bir tutam sochlaring mening qo'limga, G'ijimlab o'paymi yo tarab ochay...” misralari bilan boshlanuvchi she'ri ko'chirib qo'yilgan va uning tagida Rauf Parfining “Kumushday qo'llaring mening bo'ynimda, Zunnor deb ataymi yo yulib tashlay?...” deb boshlanuvchi “Cho'lponga o'xshatma”si o'rin olgan.

Keyinchalik shoir o'z ustoziga bag'ishlangan “Abdulhamid Sulaymon Cho'lpon” she'rini yozdi. She'r uchta sonetdan iborat. Uchinchi sonetda Cho'lpon siymosi aks etgan:

* * *

Sen haqingda o'ylasam,
kichrayadi dunyolar,
Nazaringma yo'lolmas
fitna-fasod, ig'volar.

Sen haqingda o'ylasam,
ko'nglim kengayib borar,
Iztirobim gullaydi,
sevgim ulg'ayib borar.

Sen haqingda o'ylasam,
ochib ko'ngil ko'zimni,
Xudoning huzurida
Inson sezgum o'zimni.

TOG'DA

Archazor oralab kelgan bir Shamol
Qoyalar ortida, ovloqda kezgan
Sohibjamol Xayol haqida kuylar...

Daralar oralab sharqiragan Suv
Hayqirib she'r aytar yosh shoir kabi.

Tunda tog' boshida yarqiragan Oy
Yetaklab borardi bolaligimni.

Shoshilib yuksakka ketayotgan Yo'l
Ergashtirib o'tdi horg'in umrimni.

Xudo nafasiday musaffo Havo
Ilk sevgim totini esimga soldi.

Cho'qqi boshidagi parcha oq Bulut
Birinci maktubim singari toza.

Cho'qqilardan enib kelayotgan Shom
Onam nigohiday g'amgin, umidvor...

XIYONAT

To'qayda duch keldim chiyabo'riga
Qonsirab, hansirab topgani — xo'rlik.
Hol so'rsam, gap tashlab nari-beridan,
“Men ham odam edim”, — dedi u sho'rlik.

Ko'hna go'rxonada ko'rdim bir ilon,
O'rmalar, sudralar, qiyshanglar turlik.
Hol so'rsam, boshini ko'tarib nolon:
“Men ham odam edim”, — dedi u sho'rlik.

Vayronalar ichra boyo'g'li uchrar
Ulfati zulmatdir, a'moli — zo'rlik.

Oh, shoir qismati yarqiroq, gulgun,
Zavqlarga to'lar u. Bir so'zni izlar.
Dunyoda hech bir zot bilmas ne uchun,
Ayricha kular u, ayricha bo'zlar.

Yo'lsizlik yo'ldoshi, toleyi nigun,
Hech qachon to'yarmi axir yovuzlar.
Bu — xalq dushmani,
deb tutsalar bir kun,
Baribir, u xalqning nomidan so'zlar.

Boshida qora qish, oppoq bahorlar,
Yuragi yarim-u, butun iymoni,
Talotum olamni shivirlab chorlar.

Tani omonatdir, naqd erur joni,
Ko'krak qafasida lovullab porlar,
Buyuk muhabbatning qonli nishoni.

Rauf Parfi g'aladonida maqolalar uncha ko'pmas. Lekin uning Cho'lpon va Fitrat haqida alohida maqolalar yozganiga guvoh bo'lamiz. Cho'lponga oid esse “She'riyat huquqi” deb nomlanadi.

“O'zbekma'naviyatiosmonidabirCho'lpon yulduzi porladi, tobora o'ziga jalb etdi va uning ovozi butun bir xalqning hayqirgan ovozi edi, — deb yozadi muallif. — Abdulhamid Cho'lpon zulmga qarshi, stalinizmga qarshi, manqurtlikka qarshi ozodlik uchun, she'riyat huquqi uchun kurashayotganlarning sardor-laridan biridir. Xalq shunday shoirini ko'p zamonlardan buyon kutgan edi. U keldi va kurash maydoniga chiqdi. Haq va Haqiqat yo'lida qurbon bo'ldi. Bu yorug' dunyoda u yolg'iz emas edi, uning tengdoshlari, maslakdoshlari juda ko'p edi bu eski shaytanatda. Ular — yuzlab shoirlar milyon-milyon nufusli xalqlarning faryodiga aylangan zulmga qarshi — Inson Haqlari uchun, She'riyat Huquqi uchun o'rtaga chiqqan Muqaddas She'riyat lashkari edilar”.

Rauf Parfi o'z ijodida Cho'lpon siymo-sinigina yaratib qolmadi, balki u ulug' ustozining yur otzodligi va shaxs erki bilan bog'liq g'oyalari ham davom ettirdi. Biz

buning yorqin namunasini “Abdulhamid Cho'lponga muxammas” she'rida ham ko'rishimiz mumkin.


“Fitrat she'riyati” maqolasida bu ijodning asl mohiyatini ochib beruvchi quyidagi so'zlar darj etilgan: “*Fitrat she'riyati nochor qolgan shoirning o'tli nidolaridangina iborat emas, u Turkistonni oyoqosti qilgan kelgindilar va jaholat tufayli tovushlari o'chgan vatandoshlariga achchiq nafratli murojaatidir. She'rlarining shakliy qurilishlari ham mavzu e'tibori bilan o'ziga xosdir. Bu she'riyat mutlaq yangicha bo'lib, yangicha shuur, yangicha dunyoqarashning yangicha tamoyillarini o'zida aks ettirdi...*”

O'tgan asrning 60-yillarida Kine-matografiya davlat komitetining raisi lavozimida ishlagan mashhur adabiyot-shunos Aziz Qayumov endigina univer-sitetni tamomlagan Rauf Parfini ishga oladi. Olim o'zining “Xalq yodida shunday qoladi” xotira maqolasida Rauf Parfining birinchi ish kuni haqida shunday xotirlaydi: “*Uning birinchi qilgan ishi — o'zi o'tirgan stol yonidagi devorga Abdulla Qodiriyning katta portretini osib qo'yish bo'ldi. Men bildimki, unda Abdulla Qodiriyga bo'lgan muhabbat bor. Qodiriy asarlarini o'qigan, undan ibrat olgan. Bu voqeadan men behad mamnun bo'ldim*”.

Rauf Parfi eng go'zal she'riy turkum-laridan birini Abdulla Qodiriy xotirasiga bag'ishlaydi, uning “Ahvolimiz” g'azaliga taxmis bog'laydi. Bularning barchasi shoirning ulug' adibimiz shaxsi va ijodiga buyuk ixlosini ko'rsatadi.

Zamonaviy she'riyatimizda Rauf Parfi izdoshlaridan biri — shoir Xurshid Davron shunday yozadi: “*Rauf Parfi bo'lmaganida, Fitrat-u Cho'lpon yoza boshlagan Turkiston daftari davom etmasdi*”. Darhaqiqat, shoir Rauf Parfi jadid bobolarimiz bo'lmish Fitrat-u Cho'lpon, Qodiri-yu Usmon Nosirlarning nafaqat badiiy siymosini yaratgan, balki ularning yurt istiqloli va millat istiqboli bilan bog'liq g'oyalari ham munosib davom ettirgan ijodkor edi.

Olim OLTINBEK,
Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti
universiteti dotsenti



TO'DA

Bu to'da holidan kuyinma, jigar,
Darding uvul ketar, anglamas birov.
Nayni it oldiga tashlasang agar,
Suyak deb g'ajishga tushadi darrov.

ESKI DARS

It oldida tiz cho'kkan
Norlar tilga kirganda,
Yozda boshlarga yoqqan
Qorlar tilga kirganda,
Bordan yo'qqa aylangan
Borlar tilga kirganda,
Yordan yovga evrilgan
Zorlar tilga kirganda,
Jon tomirday uzilgan
Torlar tilga kirganda,
Ming yil g'azna qo'rgan
Morlar tilga kirganda,
Shamollar tutqun yotgan
G'orlar tilga kirganda,
Atirguldai gullagan
Xorlar tilga kirganda,
Dunyo rost bo'larmidi,
Yolg'on oz bo'larmidi,
Qarg'a bitta dumalab,
Oppoq g'oz bo'larmidi?..

OYDIN NIGOH

Qahrim kelganida, qahrimni yoydim,
Mening zulmatimga boqarding oydin.

Zahrim kelganida, zahrimni yoydim,
Tag'in g'urbatimga qararding oydin.

Mehrim kelganida, mehrimni yoydim

“Sening bilan eskilar yangi...”

Boshlanishi 1-sahifada.

BAHOR. G'OLIBLAR

Maysaga do'q qilar momaqaldiroq,
G'unchaga chaqchayar g'azabnok chaqmoq.

Qasirg'a zabtidan qorayar dala,
Bulut yirtig'idan to'kilar jala.

Maysa parvo qilmay o'saveradi,
G'uncha oq kulgular sochaveradi.

Xavf o'tgach, nurlanib yorishar samo
Tabassum qilganday ularga Xudo.

MA'YUS GUL

Bir mehribon ayol bu ma'yus gulni
Halol manglay teri bilan o'stirgan.

Yaproqlarin achchiq ko'zyoshlar bilan
Har kun yuvib-tarab parvarish qilgan.

Bir hasratli ayol, mushtipar ayol
Faqat shu gulni deb yig'lagan, kulgan.

Bir hokisor ayol bu ma'sum gulni
Qaqragan yillarda, qattiq kunlarda
Yurak qoni bilan suvlab o'stirgan.

Bir ho'kiz toptayotgan bu gulni...

DO'ST

Mening eski do'stim, navqiron do'stim,
Farishta chehrali, farovon do'stim.

Shahri izdihomda yolg'iz sirdoshim,
Goho bobomdaysan, goho tengdoshim.

Sening huzuringda huzur topaman,
Yaxshi-yomonimga uzr topaman.

Hushimni, tushimni aytaman senga,
Har kun yurak bilan qaytaman senga,

Ko'nglimga mendan-da jonday yaqin Suv,
Mening shoir do'stim, katta oqin Suv.

APREL

Muncha chuldiraysan, muncha kulasan,
Suvlarday sharqirab, shoshib yelasan.

Oppoq bulutlarday kezasan yayrab,
Tongni uyg'otasan qushlarday sayrab.

Shiddating toshqinli, ilhoming-da — sel,
Qishdan chiqqan bog'day kulasan Aprel.

Men esa yilidan adashgan mehmon —
Qari dekabrday qoshingda hayron.

HOL

Jonda man naysondaman, xazondaman,
Tanda man insondaman, hayvondaman.

Shonda man nishondaman, beshondaman,
Onda man xush ondaman, pushmondaman.

Qonda man, qurbondaman, omondaman,
Ongda man, shaytondaman, imondaman.

Tongda man, xuftondaman, xo'p tongdaman,
Kunda man karvondaman, zindondaman.

Bunda man har yondaman, hayrondaman,
Unda man qay ondaman, qay yondaman?

Bunda man hayrondaman, hayrondaman.

SARATONDA

Yam-yashil, keng dala boshida,
Bir ariq zilol suv qoshida
Besh-olti tol qur-davra qurgan,
Soyasida munkayib turgan

Bir chayla ko'rib qoldim,
So'ng xiyla turib qoldim.
Chaylada bir kelinchak,
Tebratadi belanchak.
Allasiga aldaniib,
Go'dak esnar erinchak.

Yuz qavatli ulkan binolar,
Ochko'z, badbaxt, kibor dunyolar
Shu chaylaga salomga kelsa,
Baxt neligin anglasa — bilsa...

Jahonning yo'qotgan baxtini,
Notinch dunyo tinchi naqdini,
Shu kichik chaylada ko'rdim men,
O'yga tolib uzoq turdim men:

Chaylada bir kelinchak,
Tebratadi belanchak,
Allasiga aldaniib
Quyosh esnar erinchak.



Boshlanishi 1-sahifada.

1994-yilda shaxsiy tashabbus ko'rsatib, O'zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix institutining direktori sifatida o'rta maktab o'quvchilarining 5–10-sinflari uchun ilk bor o'zbek tilida “O'zbekiston tarixi” darsliklarini yaratish majburiyatini oldim. O'z vaqtida tayyorlangan darsliklarimiz 1994-1995-yillarda har biri 100 ming nusxadan nashr qilindi. 5-sinf darsligini arxeologik materiallar tahlili asosida o'zim yozdim. Bu kitob o'zbek, rus, tojik, qirg'iz, turkman, qozoq, qoraqalpoq tillarida chop etildi. Shuningdek, Vatanimiz Mustaqil bo'lgan kundan boshlab Toshkentdagi Lenin muzeyini O'zbekiston tarixi davlat muzeyiga aylantirish bo'yicha deputat sifatida qattiq kurashdim va pirovardida bu euzu niyatga erishdim ham.

– Ilmiy faoliyatingizning qariyb yarmi Istiqlol davriga to'g'ri keladi. Mana shu o'tgan 34 yil mobaynida arxeologiyamizda qanday ishlar amalga oshirildi?

– Bu avvalgi savolingizga bog'lanib ketadi. Chunki tarixni tiklash, yangi ma'lumotlar asosida darslik yozish arxeologiyasiz bo'lmaydi. Qisqacha sarhisob qiladigan bo'lsak, yomon natijalarga erishmadik.



ketlikda davriy sanalash, ularning tarixiy bosqichlarga bo'linishi va boshqa masalalar jiddiy izlanishni talab etdi. Oddiy qilib gapirganda, har bir arxeologik artefakti gapirtirish kerak edi.

Oltinchidan, avvallari ko'chmanchi chorvachilikning kelib chiqishi ilk temir davri tarixiy jarayonlari bilan bog'lab

ushbu kitobda o'z aksini topgan. Eron va Turonda o'tgan tarixiy jarayonlar xronologik ketma-ketlikda obyektiv bayon etilgan. O'zbek xalqining sug'diy, xorazmiy, boxtariy va sak-skif asoslari, turkiytil ajdodlarimizning iqtisodiy-xo'jalik hayoti, etnomadaniy qiyofasi, ko'p etnik komponentligi asoslangan.

TARIXNI TIKLASH MASHAQQATI

Birinchidan, Sopolitepa, Jarqo'ton, Bo'ston kabi qadimgi dehqonchilik madaniyati yodgorliklarini o'rganish va ulardan topilgan noyob arxeologik artefaktlarning yangicha tahliliga ko'ra, O'zbekistonning janubiy viloyatlari jez davridan e'tiboran Qadimgi Sharqning birlamchi sivilizatsiyalar tarkibiga kirganligi ilmiy isbotlandi. Ular Janubiy Turkmaniston va Shimoliy Afg'oniston yodgorliklari bilan birgalikda jahon tarixiga Oks sivilizatsiyasi nomi bilan kiritildi. Avvallari tarixshunoslikda bunday g'oyani aytish amrimahol edi. O'zbek deganda dashtda yashovchi turkiyzabon chorvador tushunilar edi.

Ikkinchidan, tarixshunoslikda O'zbekistonda jez davrida tarkib topgan qadimgi shaharsozlik madaniyati va o'zbek davlatchiligining asoslari dastlab Erondan kirib kelgan, degan g'oya fanda hukmronlik qilib keldi. Hatto shu davr kulolchiligining yuksak rivojlangan mahsulotlari to'g'ridan to'g'ri “Ahmoniy-lar keramikasi” deb yuritildi. Endilikda birlamchi arxeologik materiallarni g'oyaviy tazyiqsiz yangicha tahlil etish natijasida tarixiy haqiqat tiklandi. Ya'ni, miloddan avvalgi VI asrga qadar Markaziy Osiyoda jez davri birlamchi sivilizatsiya yutuqlarining qayta tiklanish davri bo'lganligi ilmiy isbotlandi.

Uchinchidan, sovet davri tarixshunosligida Aleksandr Makedonskiyning Sharqqa harbiy yurishlari tufayli O'zbekistonning avtohton asosga ega qadimgi shaharsozlik madaniyati va davlatchilik ildizlari antik davr Yunon-Rim sivilizatsiyasi bilan bog'langan edi. Antik davrda an'anaviy o'zbek davlatchiligiga innovatsiya sifatida kirib kelgan ellinizm amalda mahalliy me'moriy madaniyatda, tovar-pul munosabatlarining shakllanishi, diniy qarashlar, yozuv madaniyatida o'z aksini topgan bo'lsa-da, aslida bu yuksaklikning zaminida qadimgi Sharq madaniyatiga xos jez davri Sopolli madaniyatining an'ana va omillari yotardi.

To'rtinchidan, jez, ilk temir va antik davrlarda yuz bergan innovatsiyalar tufayli Markaziy Osiyo etnosiyosiy hayotida turkiy ruhiyat, madaniyat va ma'naviy rivojlanish har jabhada real ko'rina boshlagan. Antik davrdan boshlab o'zbek xalqining etnogenezi va davlatchiligi jadal rivojlanish bosqichiga ko'tarilgan. Bu mustaqillik siyosati ilk o'rta asrlardan to arablar bosqiniga qadar davom etgan. Bu tarixiy jarayonlar arxeologik va antropologik materiallarda yorqin aksini topgan va uning qiyosiy lokalizatsiyasi kankiya va kangar, xu va rung, tiyek va g'uz, xunnu va usun kabi turkiy etnik atamalarda o'z ifodasini topgan. Bu haqda xanxulashirilgan qadimgi Xitoy yozma manbalari aniq ma'lumotlarni beradi.

Beshinchidan, arxeologlarimiz to'plan-gan materiallarni yangicha qarashlar asosida talqin va tahlil qilib, qator yangi xulosalarni olg'a surishga muayassar bo'lishdi. Masalan, qadimgi shaharlarning kelib chiqish ildizlari, xronologik ketma-

kelindi. Endilikda esa bu tub o'zgarishlar rosa ming yil avval sodir bo'lgani aniqlandi.

Yettinchidan, chorva mollariga yem-xashak ehtiyoji kun sayin ortib borishi natijasida chorvadorlar yangi yaylovlar qidirib, bir joydan ikkinchi joyga ko'chishga majbur bo'ladilar. Bu esa, bir tomondan yaylovlar uchun qabilalar o'rtasida to'qnashuvlarni keltirib chiqar-sa, ikkinchi tomondan yashash uchun kurash xo'jalik sohiblarini bir-biriga iqtisodiy jihatdan o'zaro bog'lab qo'yadi va bu jarayon tovar-pul munosabatlariga asoslangan bozorning paydo bo'lishiga, o'z navbatida, bozor qabilalararo savdo karvon yo'llarining tarkib topishi va ular bo'ylab qadimgi shaharlarning qad ko'tarishiga olib keladi.

Men xalqimiz tarixida yuz bergan birinchi va ikkinchi sivilizatsiyalar davri yutuqlariga e'tibor qaratdim. Ammo shunday tahliliy xulosalarni shonli o'tmishimizning har bir davri misolida keltirish mumkin.

– Ustoz, shoir-yozuvchilar kabi olimlarning ham shoh asari bo'ladi. Sizning ilmiy faoliyatingiz bilan tashnib, “O'zbek xalqining kelib chiqish tarixi” kitobini ana shunday shoh asar degim keldi.

– E'tirof uchun rahmat, qizim. Kitob O'zbekistonning mahalliy xalqi, o'zbek millati va uning davlatchiligi tarixining uzoq vaqt davom etgan o'zaro ijtimoiy-iqtisodiy, etnomadaniy aloqalar, siyosiy boshqaruv va tarixiy mafkura bazasida, murakkab etnoslararo qorishuvlar asosida shakllanishiga bag'ishlanadi. Dastlab bu haqda oliy o'quv yurtlari talabalari uchun maxsus darslik yozishga jazm qildim. 1997-yilda “O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi” nomli o'quv qo'llanmani chop ettirdim. Ilmiy jamoatchilik va keng o'quvchilar ommasi asar haqida iliq munosabat bildirdi, turli munozaralar bo'lib o'tdi. O'rta tashlangan fikrlardan kelib chiqib, tanqidlardan to'g'ri fukla chiqarib, keyingi davrda aniqlangan fak-tlar asosida darslikni boyitdim.

2015-yilda “O'zbek xalqining kelib chiqish tarixi” nomi ostida fundamental monografiyani e'lon qildim. Hozirgi kunda ushbu asar o'zbek tilida 25 ming, rus tilida 4 ming, xitoy tilida ming nusxada chop etildi. Joriy yilda 5 ming nusxada turk tilida nashr qilish rejalashtirilgan.

Mavjud qarashlardan farqli o'laroq, asarda o'zbek xalqi etnogenezining boshlang'ich nuqtasi jez davridan boshlangani (bundan 4 ming yil avval) ilmiy asoslangan. Xalq tarixi bilan millat tarixi o'rtasidagi farqlar birinchi bor

– Dunyo ilmiy jamoatchiligi bilan keng ko'lamli hamkorlikni yo'lga qo'yg'an, xorijiy ilmiy yangiliklardan boxabar olimsiz. Shulardan kelib chiqqan holda, mamlakatimizda arxeologiya sohasiga bo'lgan bugungi munosabatni qanday baholaysiz?

– Bugun akademik ilm-fan qayta tirildi, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Ilmiy-tadqiqot institutlari xodimlarining oylik maoshi davlat byudjetiga o'tkazildi. Laboratoriyalar zamonaviy texnika bilan ta'minlana boshladi. Zamonaviy talabdan kelib chiqib, Toshkentda Milliy arxeologiya markazi tashkil etildi, unga bino ajratilib, ta'mirlab berildi. Xodimlar arxeologiya izlanishlari bilan bog'liq birlamchi ilmiy-texnika asbob-uskunalari bilan ta'minlandi. Maxsus himoya kengashlari tashkil etilib, arxeologiya mutaxassisligi bo'yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlashga katta e'tibor berilmoqda.

Milliy arxeologiya markazi mutaxassislari va Yahyo G'ulomov nomidagi Samarqand arxeologiya instituti bilan birgalikda 2030-yilgacha ilmiy sohada qilinadigan ishlar rejasini tuzdik. Bu yo'lda bir nechta takliflarimiz ham bor. Mavridi bilan ularni hayotga tatbiq etib boramiz.

– Ijtimoiy tarmoqlarda arxeologik obyektlar qarovsizligi yoki bila turib ularni buzib tashlashlar sodir bo'lmoqda, degan xabarlar uchrab turadi. Bunga nima deysiz?

– Ijtimoiy tarmoqlarning bu masalada jar solishi mutlaqo to'g'ri. O'zim ham bu mavzuda qator faktlar keltirilgan bir necha maqolalar bilan matbuotda chiqishlar qildim, telekanallar orqali tanqidiy mulohazalar bildirdim, tegish-li idoralarga murojaat qilaverib char-chaversa. Madaniy meros agentligi, qolaversa, sud, prokuratura organlari, mahalliy rahbarlarning beparvoligi yoki masala mohiyatiga chuqur kirib bormasligi vaziyatni og'irlashtiradi. Ko'p kuzatiladigan holat – fermer xo'jaliklari o'z-o'zidan arxeologik obyektlarni o'z-lashtirib olmaydi-ku. Bu borada jamoat-chilik nazoratini kuchaytirish shart!

Xalqimizda “Oyning o'n beshi qorong'i bo'lsa, o'n beshi yorug'” degan dono maqol bor. Bugun muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan har bir jabhada tub o'zgarishlar yuz bermoqda. Bu sohadagi nuqsonlarni bartaraf etish yo'lda boshlangan sa'y-harakatlar ham yaqin orada o'z samarasini beradi, deb ishonamiz.

Zarnigor IBROHIMOVA
suhbatlashdi.

TAHRIRIYATDAN: Aziz mushtariy! Ushbu suhbat sahifalanayotgan chog'da rasmiy manbalar orqali xushxabar oldik. Ardoqli olim, jonkuyar ziyoli domlamiz Ahmadali Asqarov O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoniga ko'ra “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni bilan taqdirlandi. Biz ko'p ming sonli gazetxonlarimiz nomidan ham millat oyidini bo'lgan hurmatli akademigimizni yuksak mukofot, e'tirof va e'tibor bilan muborakbod etamiz! U kishiga tanisishatlik, xotirjamlik va ilhom-u g'ayrat tilab qolamiz!

TARIXDAN SADO



YOMBIDAN QADRLI



“Quyma” deganimiz barcha zamonlarda har qanday pul birligi o'rnini bosadigan tabiiy unsur – oltinning foydalanishi uchun qulay shaklga keltirilgani. Xonlik davrida quyma katta odam mushti hajmicha bo'lgan. Bu esa savdogarlar uzoq yurtlarga ot yoki tuyalarga xurjunlarga solib olib borishlarida qo'l kelgan. Savdogarlar uzoq o'ikalarga yo'l olganida olib borayotgan va keltirayotgan mollari miqdoriga qarab saltanat chegaralarida boj to'lashgan. Shu sabab bojmonlar mol-mulknlarni ko'zdan kechirishgan, miqdorini aniqlashgan. Ularni xurjunlardagi quyma oltinlar, savdogarlarning qo'ynidagi pullar: dinor, shohi, tanga, manatlar qiziqtmagan, hatto qancha pul olib chiqib ketayotgani haqida ma'lumotnoma (deklaratsiya) to'ldirishlari talab qilinmagan. Ular sinchiklab boshqa narsani izlashgan. Xo'sh, bojmonlar nimani izlashgan dersiz?

Arxiv hujjatlarida qiziq ma'lumotlarga ko'zingiz tushadi. Hojiniyoz hoji Xonakohiy Xiva xoni Muhammad Rahimxon soniy topshirig'i bilan Hoji Xalifaning “Jahonnoma” asarini arabchadan chig'atoy tiliga o'giradi. Sharq tarixiga oid asarni tarjima qilish uchun uch yildan ortiq vaqt ketadi – bu orada xon vafot etib, o'rniga o'g'li Isfandiyor o'tiradi. Hojiniyoz hoji tarjimani tugatadi, ammo uni kitob holiga keltira olmaydi – og'ir xastalanib, to'shakka mixlanib qoladi. Hoji xonqalik bo'lgani uchun mazkur tarjimasini kitobat qilishni o'sha vaqtda Xonqa hokimi bo'lgan Muhammad Aminaddin hojidan iltimos qiladi.

Umrini tarjimonlikka bag'ishlagan, kitob qadriga yetadigan Hojiniyoz hoji hokimga kitob qo'lyozmasini berarkan, uning ilk varag'iga “Vaqfun, lo yunkalu min hal al-balad” deb chiroyli nasta'liq yozuvida qayd qiladi. Hokim noyob asarni ham sovg'a sifatida, ham xattotlarga buyurib, ko'paytirish va'dasi bilan qabul qilib oladi va uni beklik qozisiga muhrlatishni ham unutmaydi.

Keyinchalik bir necha nusxada ko'paytiril-gan bu kitobning barcha nusxalariga aynan yuqoridagi yozuv bitilib, qozi muhri bilan tasdiq-lanadi. Nima uchun? Umuman, bu yozuv nimani anglatadi?

Agarda yozuvning ma'nosini uqsak hammasi ravshan tortadi: “Vaqf, shahardan olib chiqil-masligi kerak!”

Kitoblarni vaqf qilish Sharqda ko'p asrlar ilgari rasm bo'lgan. To'g'ri, bu borada islom ulamolari orasida turli munozaralar kuzatilgan. Hanafiy mazhabi piri Abu Hanifa ko'chmas mulklardan boshqa narsalarni vaqf qilish joiz emas, degan bo'lsa, shogirdi Muhammad ush-Shayboniy ulusga ko'proq manfaati yetsin degan maqsadda “Manqul narsalarning hammasini vaqf qilish mumkin”, deb fatvo beradi. Keyingi hanafiy ulamolari ayni shu fatvoga amal qilishgan va bu hatto xonliklarda hukm darajasiga ko'tarilgan. Abu Hanifa ko'chmas mulkdan tashqari narsalarni vaqf qilish joiz emas deganlarida vaqf qilinmish mulk uzoq vaqt saqlanishi zarurligini e'tiborda tutgan. Bular madrasa va masjidlarga ajratilgan yer va boshqa mulklarning vaqf qilinishida ko'rinadi.

Abu Hanifa shogirdining kitoblarni ham vaqf qilishga buyurishi ortida euzu maqsad yotibdi, ya'ni kitoblar umrbog'iy bo'lishi, egalari ularni ko'z qorachig'idek asrab, kelajak avlodlarga yetkazishi ko'zda tutilgan.

Kitoblarni vaqf qilishda talab qilinadigan shartlar bor: vaqf qilinmish kitob hokim, qozi hukmi bilan tasdiqlanishi kerak. Burhoniddin al-Marg'inoniy “Hidoya” asarining ikkinchi jildida bu shartni alohida eslatib, hokim yoki qozidan tashqari hech bo'lmaganda mutavalli darajasidagi biror martaba egasi rasman tasdiqlashi kerakligini aytadi.

Bundan ko'rinadiki, birovdan sovg'a sifatida olinayotgan yoki kitobfurushlardan xarid qilin-gan kitobni mulk sifatida asrash uchun vaqf qiladiganlarga keng imtiyozlar berilyapti. Chekka qishloqda yashayotgan kitobxon kishi beklilik hokimi yoki qozini izlab vaqt yo'qotmaydi, bu ishni jome masjidi mutavallisi amalga oshirishi mumkin.

Yuqorida saltanatlar chegarasida xizmat o'tayotgan bojmonlar (bojxona xodimlari) savdogar yoki sayyohlar olib chiqayotgan yoki olib kirayotgan mollarni qat'iy nazoratdan o'tkazishgani, ularni quyma oltin yoki turlik pullar qiziqtmaganini aytdik. Ular sinchiklab tekshiradigan narsa aynan kitoblar bo'lgan. Savdogar yoki sayyoh xurjunidagi kitoblar vaqf qilingan bo'lsa, olib chiqish qat'iy taqiqlangan. Kimdir yashirin tarzda vaqf qilingan kitobni olib ketayotgani aniqlansa, musodara qilinib,

xonlik mulkiga aylantirilgan – kutubxonaga topshirilgan.

Vaqf haqidagi yozuv kitoblarning birinchi sahifasiga bitilgan. Bundan tashqari, kitobning yana ma'lum varaqlariga ham vaqf ekanini eslatuvchi belgi yonida hokim, qozi yoki mutavalli muhrlari bosilgan. Bu takroriy tasdiq kitobni chetga olib chiqib, qimmatroq sotishni ko'zlagan odam uning birinchi varag'ini yirtib tashlaganida ham aniqlash imkonini bergan. Qo'lga tushgan kitob savdogari birinchi varag'i tasodif yo'qolib qolganini bahona qilishi mumkin. Ba'zan shunday holatlar ro'y bermasligiga kafolat yo'q. Ammo kitobning vaqf belgisi muhrlangan boshqa varaqlari ham shu taxlit yo'qolishiga bojmonlarni ishonitirib ko'ring-chil!

Sovetlar 1924-yilda vaqfni rasman bekor qiladi. Asriy vaqf mulklar davlat egaligiga o'tkaziladi. Shu bilan bir vaqtda kitoblarni vaqf qilishdek qadim euzu amalga putur yetadi. Lekin sovet davrida vaqfdan bir odatni tamoyilga kiritadi – buni kutubxonalar fondidagi kitoblarning birinchi va yana o'n birinchi sahifalariga “Falon kutubxonaga tegishli” degan yozuvli maxsus to'rtburchak tamga urilishida ko'ramiz. To'g'ri, bu o'rinda kutubxonalar fondidagi kitoblar o'g'irlanishi oldini olishni nazarda tutishadi, chetga chiqib ketishi kafolatlanmaydi.

E'tiborli tomoni, vaqf qilingan kitobni egasi sota olmag'an. Kitobfurushlar vaqf belgisi bor kitoblarni olib-sotishdan tiyilganlar. Sababi, bu qonun buzilishi hisoblanib, ular katta miqdorda jarimaga tortilgan.

Xivalik shoir, tarjimon, musiqashunos, “Tanbur chizig'i” ixtirochisi Komil Xorazmiyning o'g'li Muhammadrasul Mirzo otasidan qolgan va o'zi to'plagan besh mingdan ortiq kitobning barchasini vaqf qildirgan. Kitobga g'oyatda ko'ngil qo'yg'an bu inson shaxsiy kutubxonasidagi kitoblarni o'qish uchun birovning qo'lga bermagan, ammo shu yerda o'qishlari uchun barcha sharoitlarni yaratib qo'yg'an. Kutubxonada kitob o'qimoqchi va undan ko'chirma olishni istagan kishilar oldiga shunday shart qo'yilgan: tahoratli bo'lishi, kitobga zarracha ozor yoki g'ubor yetkazmasligi shart!

1873-yil Xiva xonligini bosib olgan chor Rusiyasi Ko'hna Arkdan 300 dona noyob kitobni olib ketgan. Bundan tashqari istiloda qatnashgan boshqa shaxslar ham madrasalar, aholi uyalaridan ko'plab kitoblarni harbiy o'lja sifatida qo'lga kiritgan. O'sha kitoblarning aksari vaqf qilingan bebaho mulkimiz edi.

Elatimizda mulla Ro'zmat oqqosh oxun ismli bir zot yashab o'tdi. Bu inson Xiva madrasasida o'qigan, ammo xonlik ag'darilgani sabab madrasani tugata olmag'an bo'lsa-da, bir necha tilni bilardi. Umri poyonigacha elatda imomlik qilgan mulla Ro'zmatning uyida chiroyli muqovali kitoblari bo'lardi. Bola vaqtimiz ba'zida mulla buvaning nasihatlarini tinglardik. Kamdan kam hollarda u kishi bizga qalin muqovali kitobarini ko'rsatardi – qo'limizga qilib, varaqlash orzumiz amalga oshavermasdi. Mulla buvaning yolg'iz qizining men tengi nevarasi bilan bir sinfda o'qiganmiz. Bir kuni mulla buva uyida yo'qligida tokchalarga terib qo'yilgan chiroyli kitobaridan birini olib, varaqlab ko'rdim. E'tiborimni tortgani, kitobning ilk sahifasidagi arabiy yozuv va g'alati muhr bo'ldi. O'sha vaqtda bu nima yozuv, unga nimaga g'alati muhr urilganini qaydan bilay? Keyinchalik angladimki, mulla buvaning aksar kitoblari vaqf qilingan ekan.

Kitoblarning vaqf qilinishi va milliy boylik sifatida qadrlanib, chetga chiqib ketishining oldi olinishi ajdodlarimizning ilm-fanga, uning hosilasi va negizi bo'lgan yozma manbalarga bo'lgan e'tiborini ko'rsatadi. Ushbu e'tibor o'laroq yurtimizdan jahon tan olgan ulug' allomalari yetishib chiqqan.

Asrlarki, savdogarlar xurjunlarida yurt oshgan necha-necha ming botmon quyma tillolar bugun qayerdaligini bilmaymiz. Balki tabiiy unsur bo'lmish bu qimmatbaho nimarsalarni vaqt shamollari tuproqqa qorgandir, ammo vaqf qilinmish kitoblar hali-hamon dunyoning qay bir kutubxonalarida asralib, insoniyatga nafi tegmoqda.

Ro'zimboy HASAN



Boshlanishi 1-sahifada.

NAVOIYNING EHSON DASTURXONI HAMON OCHIQDIR

Diinavoz YUSUPOVA,
filologiya fanlari doktori,
professor:

– Buyuk ajdodimiz Alisher Navoiy Eron madaniyati tarixida nafaqat ulug' shoir va mutafakkir, balki muhtasham inshootlar me'mori, saxovatpesha, xalqparvar amir sifatida ham nom qozongan. Safar davomida biz bunga yana bir bor amin bo'ldik, Eron hududida hazrat bobomiz insho ettirgan ulug'vor



yodgorliklarga boqib, qalblarimiz faxr-iftixor tuyg'usiga limmo-lim to'ldi.

Mashhad shahri Imom Rizo me'moriy yodgorliklar majmuasi bilan dunyoga mashhur. Safarimizning ilk kunlarida ushbu ziyoratgohda bo'ldik. Majmua eski va yangi hovli, Alisher Navoiy ayvoni, Imom Rizo maqbarasi, Gavharshodbegim masjidi, madrasa, muzey, kutubxona, karvonsaroy va boshqa inshootlardan iborat.

To'rtta hovlidagi katta ayvonlar (uzunligi 46 metr) XV asr oxirida Alisher Navoiy tomonidan qayta qurilgan va hozirgi ko'rinishga keltirilgan. Ayvonlardan birining peshtoqiga Sulton Husayn Boyqaro ismi bitilgan. Ayvonlarning ichki qismida Navoiyning shaxsiy xattotlaridan biri, "xattotlar sultoni" deya e'tirof etilgan Sultonali Mashhadiyning va Alisher Navoiy yoshlikda cheksiz mehr qo'ygan, keyinchalik "Majolis un-nafois" da eng ma'rifatli temuriy hukmdor sifatida xotirlagan Abulqosim Boburning maqbarasi borligidan voqif bo'ldik.

Xondamirning shohidlik berishicha, ayni shu maskanda qurilgan "Dor ul-huffoz" imoratini lojuvard va oltin, islimiy, xitoycha naqshlar va tasvirlar vositasida dabdaba ila bezaganlar. Bundan tashqari, o'sha tabarruk maqbara hududida o'ta hashamat va benihoya zeb-ziynat bilan bir ayvon (ayvoni maqsura) bunyod qilingan. Shuningdek, bir g'alvirxona ham qurilgan bo'lib, har kuni unda musofirlar, muhtojlar va yetimlarga taom ulashilgan. Hayratlanarli jihati, bu an'ana hozir ham davom etayotir, haligacha ehtiyojmandlar ushbu yemakxonadan taomlanar ekan. Safarimizning so'nggi kunida Navoiy bobomiz besh asr oldin yozgan va bugungacha ochiq turgan ehson dasturxonidan tanovul qilish baxti bizga ham nasib etdi.

Tarixiy manbalardan ma'lumki, Navoiy qurdirgan binoi xayrlar orasida rabotlar – karvonsaroylar alohida o'rin egallaydi. Xondamir "Makorim ul-axloq" asarida ulug' amir barpo ettirgan ellikdan ziyod rabotning nomini keltirgan.

Dastlab VIII-IX asrlarda Movarounnahr va Xuroson hududlarida paydo bo'lgan rabotlar harbiy (sarhadda dushmanga qarshi mudofaa) va iqtisodiy-ijtimoiy (yo'lchilar, savdogarlar va sayyohlarga boshpana) vazifalarni bajargan. G'aznaviylar davriga kelib, ular nafaqat yo'lovchilar boshpanasi, balki so'fiylik va ijtimoiy hayot markaziga aylangan.

Navoiy amirlik qilgan davrda rabotlarning jamiyat hayotidagi ahamiyati yanada ortgan. Chunki bu davrda karvon yo'llari yanada rivojlanib, Sharq-u G'arb o'rtasidagi savdo aloqalari kuchaygan, binobarin, rabotlarga ehtiyoj keskin oshgan. Shu tariqa rabotlar ilm, ma'naviyat markazlari sifatida ham xizmat qilgan. Navoiy qurdirgan rabotlar katta hovli, masjid, hammom, mehmonxona va omborxonalarga ega mukammal inshootlar bo'lib, badiiy va me'moriy jihatdan ham alohida ahamiyat kasb etgan.

Ta'birjoiz bo'lsa, Yangi O'zbekiston davrida har bir tumanda qad rostlagan "Ma'naviyat maskanlari" vazifasini hazrat Navoiy davrida u kishi bino etgan rabotlar bajargan, deyish mumkin.

Mashhad shahridan qariyb qirq chaqirim masofada joylashgan ko'hna Sangbast rabotini o'z ko'zimiz bilan ko'rdik. Gumbaz va minoraga ega bu bino Sulton Mahmud G'aznaviy zamonida Tus hokimi Arslon Jozib tomonidan milodiy 999 – 1030-yillar oralig'ida qurilgan. Keyinchalik ushbu binoning asosiy qismi buzilgan va Amir Alisher Navoiy uning yonidan yangi bir rabot barpo etgan.

Davlatshoh Samarqandiy ushbu ko'rkam va muazzam rabotni "Olam ko'zi haligacha bunday imoratni ko'rmmagan edi", deya ta'riflagan. Darhaqiqat, tarixiy obidaning asrlar hukmidan omon qolgan och yashil rangdagi go'zal peshtoqlari muarrixning so'zlari mubolag'a emasligiga guvohlik berib turibdi.

SIRLI DAFINANING SOHIBI KIM?

Fazliddin MAHMADRAJABOV,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti o'qituvchisi:

– Safar davomida Alisher Navoiy bir muddat hokimlik qilgan Astrobod (hozirgi Gurgon) shahrida ham bo'ldik.

Shu o'rinda mazkur jug'rofiy nom etimologiyasiga aniqlik kiritib o'tsak. Fors tilidagi manbalarda Astrobod so'zi "Astarobod" shaklida keladi. "Astar" so'zi pahlaviy tilida

"xachir" degan ma'noni bildiradi. Lekin, aslida, bu nomning kelib chiqishi boshqa bir tarixiy hodisaga bog'liq, ya'ni Ahmoniy podshoh Xashoyorshohning qizi malika Estar sharafiga shahar shu nom bilan atalgan ekan. "Estar" so'zi qadimgi forsiyda "yulduz" ma'nosini anglatgan. Naql qilishlaricha, Xashoyorshoh qizi



Estarga Astroboddan Ostoro (hozirgi Astraxan) shahrigacha bo'lgan yerlar boshqaruvini topshirgan. Mahalliy aholining shahar nomini haligacha "Estarobod" tarzida talaffuz qilishi ham ana shu nuqtayi nazarni tasdiqlaydi.

Tarixiy Astrobod shahri yo'lida boshqa tarixiy obidalarini ham ko'rdik. Ulardan biri – Chinoron shahridagi Mili Rodkondir. Mazkur tarixiy obidani milodiy XIII asrda yashab ijod qilgan qomusiy olim Xoja Nosiriddin Tusiy qurdirgan ekan. Gunbadi Kovus shahridagi Qobus maqbarasi esa X–XI asrlarda hukmronlik qilgan Oli Ziyoriyalar davlatining to'rtinchi podshohi Qobus bin Vashmgir tomonidan barpo etilgan, tojdomning o'zi ham shu yerga dafn qilingan ekan. Maqbara dunyodagi loy g'ishtdan qurilgan eng baland bino sifatida ahamiyatlidir. Balandligi 52 metr bo'lgan tarixiy obida 15 metrli tepalik ustida qad rostlagan.

Qadim Astrobod shahrida temuriylardan meros mahobatli masjid va bozor saqlanib qolgan. Saljuqiylar davriga mansub minoraga tutash masjid temuriy malika Gavharshodbegimning buyrug'i va shafeligida barpo etilgan ekan. Otobobolarimizning bunyodkorligidan qalbimizda faxr tuyg'usi uyg'ondi. Qiziq ma'lumotni eshitdik: bir necha yil oldin masjid hovlisi ta'mir uchun qazilganida, bu yerdan katta tilla qozon topilibdi. Mahalliy aholi ta'biri bilan aytganda, Gavharshodbegim masjid qurish bilan kifoyalanib qolmay, uning yuz yillardan keyingi ta'miri uchun ham sarmoya qoldirib ketgan ekan! Darvoqe, temuriylar davriga mansub bozor ham hozirda "Na'lbandon" nomi bilan faoliyat yuritib kelmoqda.

Masjid hududiga kiraverishda so'l qo'ldagi ayvonda toshga o'yib yozilgan e'lonlar taxtasiga ko'zimiz tushdi. Peshlavhalar olis o'tmishda Astrobodga yangi hokim bo'lgan shaxslarni xalqqa tanishtirmoq uchun o'rnatilgan ekan. Ehtimol, ular orasida Alisher Navoiyning Astrobodga hokim etib tayinlangani haqida e'lon ham bordir. Bu endi alohida tadqiqot mavzusidir. Masjidning yug'ochdan ishlangan bezakdor eshigi shu yerdagi muzeyda saqlanar ekan. Mehmonlar masjid minbarlarini ham tomosha qilishi mumkin. Eronlik madaniy

meros mutaxassisining aytishicha, bunday minbarlar faqat sunniylik mazhabiga xos hisoblanadi.

Qadim Astrobodda qozoqlar va o'zbeklar yashaydigan mahalla ham bor ekan. Shu yerda Eron fuqaroligiga ega millatdoshlarimiz bilan hamsuhbat bo'ldik.

Safar dasturiga muvofiq Mashhadga qaytishimiz kerak edi. Yo'lida oriflar sultoni Boyazid Bistomiyning ona shahri – Bistomga kirib o'tdik. Bistomiy dafn qilingan maqbara yigirmaga yaqin tarixiy binoni o'zida jamlagan katta bir majmua tarkibida ekan. Ekspeditsiya a'zolari bilan tabarruk zot qabrini ziyorat qildik.

Eronning tarixiy shaharlarida temuriylarga oid obidalar, osori atiqalar bisyor. Buni qarangki, Boyazid Bistomiy maqbarasiga tutash madrasa ham Amir Temurning o'g'li Shohrux Mirzo tomonidan barpo etilgan ekan. Ulug' ajdodlarimiz nomi bilan bog'liq me'moriy inshootni ko'rib, qalbimizni yana bir ko'tarinkilik chulg'adi.

ZAMIN VA KOINOT ARO ROBITA

Karomat MULLAXO'JAYEVA,
filologiya fanlari nomzodi,
dotsent:

– Sayohatimiz davomida Eron poytaxti Tehrondagi Ozodlik maydoni va uning muzeyida ham bo'ldik. Muzeyning yuzlab osori atiqalari ichida meteorit bo'laklari e'tiborimizni tortdi. Katta bir bo'lmada turli hajmdagi samo jismlari jamlangan.



2023-yili Kirmon shahridan keltirilgan kattagina meteorit bo'lagini ushlab ko'rib, noodatiy vaznni his qildim. Tosh meni koinotning allaqaysi nuqtalari bilan bog'lagandek bo'ldi. Balki tasavvurga erk bergandimman, lekin nima bo'lganda ham o'zimiz uchun yangi ma'volarni ochishni ko'zlagan safarimiz mobaynida kichik bir toshbo'lak o'zgacha quvvat bergani rost. Tunda Mashhadga yetib kelganimizda, Imom Rizo majmuasidan taralayotgan nurning butun shaharga o'zgacha jilo berib tovlanishi esa sohir holatimizga yanada sirliilik baxsh etdi.

Maqsad-muddaomiz – Alisher Navoiy hayoti va faoliyati bilan bog'liq maskanlarni ziyorat qilish, o'rganish, u zotga aloqador bugungacha saqlanib qolgan inshoot va boshqa yodgorliklar haqida ma'lumotlar to'plash edi. Ayni chog'da, musharak tariximizga oid muhim inshoot, tarixiy obida va ilmiy-adabiy manbalarni nazardan qochirmaslikka qaror qilganmiz. Mashhaddagi Firdavsiy universitetida ma'ruza qilish, Imom Rizo majmuasidagi qo'lyozmalar bilan tanishish, xalqaro ilmiy seminarda ma'ruza qilishdek muhim vazifalarni bajarishga tayyorlanar

edik. Qo'lyozmalar bilan tanishish asnosida turkiy tilda bitilgan to'rt yuzdan ziyod qo'lyozmani aniq-lashga muvaffaq bo'lishimizni hali bilmasdik...

Firdavsiy universitetidagi uchras-huv va suhbatlardan so'ng Tusga yo'l oldik. "Shohnoma" muallifining daxmasi qoshida ko'nglimizdan Navoiyning bu zotni alqab yozgan: "Bu maydonda Firdavsiy ul gurd erur, / Ki gar kelsa Rustam javobin berur", degan misralari kechdi. Mashhaddan ancha olisda joylashgan Gurgon – Astrobodga yo'l olar ekanmiz, Alisher Navoiyning "surgon qilinishi" haqida ilmda hamon oxiriga yetmagan bahslarni esladik.

Turli davr tamaddunlarini bir-biriga tutashtirgan Eron davlati hududlarida islom va undan oldin amalda bo'lgan e'tiqod-u ta'limotlar-ga oid osori atiqalar hamon saqlanib turibdi. Bu, ayniqsa, Gurgonda yaqqol kuzatiladi. Tog'lar orasida, dengizdan u qadar olisda bo'lmagan kentga yetguncha yo'lida Burji Nosiriy va Gumbazi Kovus kabi tarixiy minoralarni ko'rdik. Har birining maxsus o'rganishga arziydigan uzun va qiziqarli tarixi bor.

Keyingi kuni ko'hna xarobalar osha Turkman sahrosi tomon yo'lga tushdik. Uzoq yo'l yurib, biyobondan o'tib, Maktumquli Firog'i'y qabrini ziyorat qildik. Bu yerda umrguzaronlik qilayotgan forsigo'y turkmanlarning hayot tarzi ham o'ziga xos ekan. Navoiy hazratlarining barakoti tufayli safarimiz fayzli va manfaatli kechayotganidan mamnun edik.

Yana bir dovon oshib, yangi ma'no ma'vosiga ravona bo'ldik. Xondamir "Makorim ul-axloq" da tasvirlaganidek, bu yerda bir kunda to'rt faslning ob-havosini ko'rish mumkin edi. Alhol, tayfuriya tariqati asoschisi Boyazid Bistomiy maqbarasi ziyorati qalb-larga sakinat indirdi. Ziyoratlardan so'ng Sabzavor va Nishopur orqali Mashhad sari yo'lga tushdik. Pay-g'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) tavalludining 1500 yilligi munosabati bilan muqaddas ziyoratgoh hudu-dida tashkil etilgan "Samarqand-dan Tusgacha: Eron va O'zbekiston umumiy madaniy merosiga bir nazar" mavzusida xalqaro ilmiy seminarda qatnashdik.

Bir haftalik ekspeditsiyamiz kelgu-sida salmoqli ilmiy tadqiqotlarga poydevor bo'ladi, degan umiddamiz.

OLTI ASRLIK BULOQ


Umedullo MAHMUDOV,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD):

– Mashhad shahrida joylashgan Ostoni Qudsi Razaviy kutubxonalar, muzeylar va hujjatlar markazida ilmiy-ma'rifiy muloqotlar qildik. Markaz direktori doktor Sayid Jalol Husayniy temuriylar davrida Mashhadni obodonlashtirish, shaharni so'lim va betakror manzilga aylantirish bo'yicha ulkan bunyodkorlik ishlari olib borilgani haqida so'zlab berdi.

"Mashhad ahli qurg'oqchilikdan aziyat chekayotgan kezlarda Sulton Husayn Boyqaroning vaziri, yaqin do'sti Amir Alisher Navoiy shaharga suv torttirib kelgan va bu yerda bir ayvon ham soldirgan. Hozirda u "Ayvoni Navoiy" nomi bilan mashhur. Hazrat Navoiy ochgan chashma

suvi esa Imom Rizo haramining markazida hali-hamon odamlarning chanqog'ini qondirmoqda", dedi Sayid Jalol Husayniy mamnuniyat bilan.

Ushbu muazzam kutubxonada jami ikki million nusxa kitob mavjud bo'lib, ulardan yuz mingi qo'lyozma asarlardir. Bu yerda hatto ming yillik tarixga ega Qur'oni Karim ham saqlanayotir. Kutubxona xazinasida turkiy tildagi nodir qo'lyozmalar ham ko'p ekan. Xususan, ekspeditsiya-



miz a'zolari o'rganishlari natijasida Ostoni Qudsi Razaviy kutubxonasida to'rt yuz nusxada turkiy qo'lyozma mavjudligi aniqlandi. Ular orasida Qur'oni Karimning ikkita tarjimai va tafsiri, duolar kitobi, mumtoz adabiyotga oid asarlar bor.

Tasodifiy tanlab olingan qo'lyozma nusxasini qisqa fursatda o'rgandik. U Alisher Navoiyning terma devoni bo'lib chiqdi. To'plamdan shoir qalamiga mansub g'azal, musaddas, qit'a va ruboiylar o'rin olgan. Devon "Xazoyin ul-ma'noiy" dagi: "Ashra'at min aksi shamsil-ka'si anvorul-xudo, Yor aksin mayda ko'r, deb jomdin chiqti sado" matlali ilk g'azal bilan boshlanadi. Har bir sahifada matn o'n ikki qatordan joylashtirilgan. Devonning oxiridagi ba'zi sahifalar (kolofon) mavjud emas. Shuning-dek, qo'lyozma xotimasida keltirilgan ruboiylarning oxirigisi tugallanmay qolgan. Quyidagi ruboiyning ikki misrasi bilan devon yakuniga yetgan:

Berahmdurur olam-u

zolim aflok,

Bemehrdurur anjum-u

davron bebok.

Ushbu devon taxminan XIX asrda kitobat qilingan.

Alisher Navoiyning vafotidan olti asr o'tgan bo'lsa-da, Eronda ulug' mutafakkir ijodiga qiziqish aslo kamaymagan. Olimlar, hatto oddiy odamlar shoidan meros qolgan moddiy, ma'naviy obidalar-ga o'zgacha ehtirom ko'rsatishini alohida qayd etmoq o'rindir.

Imom Rizo ziyoratgohiga kela-digan minglab ziyoratchilarning chanqog'ini qondirayotgan olti asrlik chashmani Alisher Navoiyning o'lmas ma'naviy merosiga mengzadik. Zero, asriy bo'ronlardan omon chiqqan buloq kabi ulug' bobomiz qoldirgan bebaho bisot ham ma'no ahllarining tashnaligini qondirib kelmoqda.

Hazrat Navoiy ochgan chashma suvi qiyomatga qadar qurimasin, buyuk mutafakkir asarlari butun insoniyatga ma'rifat, hikmat va hidoyat mayog'i bo'lib qolsin, deya duoyi xayr qildik.

Davra suhbatini
Olimjon DAVLATOV
olib bordi.

YANGI NASHR

Filologiya fanlari doktori,
professor Bahodir Karimning
"Abay ma'rifati" risolasi nashrdan chiqdi. Kitob qozoq xalqining buyuk adibi, umumturkiy adabiyotning yuksak cho'qqilaridan biri Abay Qo'nonboyev tavalludining 180 yilligiga bag'ishlanadi.

Bu risola yubileyga munosabat bildirib qo'yish uchungina yozilmagan. Uning javharida Abayning "Kitobi tasdiq" tarjimai va sharhni yetkazishdek ilmiy maqsad mujassam.

Abay ijodi qiyomiga yetgan XIX asrning so'nggi choragida qozoq xalqining ijtimoiy-ma'naviy hayoti mustamlakachilik oqibatida

og'ir ahvolga tushib qolgandi. Tashqi kuchlarning bosimi yetmaganday, ichki nizolar ham millat taraqqiyotiga tushov bo'lib yotardi. Bu holatni boshqalardan avval qozoq xalq og'zaki ijodiyoti va tarixi, Sharq she'riyati va Ovro'po adabiyoti namunalaridan bahramand bo'lgan Abay teran anglab yetdi. Angladi-yu, razil illatlarga qarshi ustozlari Navoiy, Fuzuliy, Sa'diy, Firdavsiy, Xo'ja Hofiz singari so'z qudrati bilan kurashga kirdi.

Bugungi kundan turib qaraganda, shoir ijodi sodda bo'lib ko'rinadi. Ammo Abay

oldida butun badiiy quvvatini yozganlarida aks ettirish emas, millatiga murabbiylik qilish vazifasi turgandi. Muallim yo'li esa barchaga ayon: o'zi bilgan murakkab bilimlarni o'quvchi anglar darajada yetkazib berish. Chunki unga aqlini ko'rsatishdan ko'ra tinglovchisining tafakkurini o'stirish muhim.

Asardagi diniy-ma'rifiy, ma'naviy ruh, undagi sof e'tiqod, milliy qadriyat va hurfikriikka asoslangan o'g'itlar odamlarni tafakkurga chorlar, o'zligini, o'z tarixini tanishga undardi. Bu bevosita hurriyat

yo'lga olib boradigan ko'rsatkich vazifasini bajarardi.

Unda bugun – Qozog'iston milliy mustaqilligiga erishgan kunlarda bu asarning dolzarbligi qolganmi? Albatta, ha. O'z vaqtida ruhiy tarbiya qo'llanmasi bo'lgan asar bugun eslatma, pandnoma shaklida "Kalila va Dimna", "Qobusnoma", "Turkiy guliston yoxud axloq" kabi kitoblar safidan mustahkam o'rinni topadi.

Aytish kerakki, "Abay ma'rifati"ning lotin va kirill yozuvida chop etilgani yosh avlod vakillari uchun ham ayni muddao bo'lgani

EZGULIK MAYOG'I



bilan qadrlidir. Ajab emas, ushbu kitobni tez kunda "Mutolaa" ilovasida ko'rib qolsak.

Otabek BAKIROV



MILLAT FIDOYLARI

Qatag'on davrlarining mash'um manzarasi bu gal hikoya qilmoqchi bo'lgan qahramonimizning achchiq taqdiri misolida yanada oydinlashadi, deb o'ylaymiz.

Muhtidin Tursunxo'jayev 1900-yili Toshkent shahridagi taniqli shifokor Abdurasul Xo'ja xonadonida dunyoga keladi. U 1914-yili Toshkentdagi rus-tuzem maktabini tamomlaydi. Madrasa ta'limini ko'rgan, shuning barobarida dunyoviy fanlarga ishtiyoqi baland bo'lgan yosh Muhtidin o'qishni davom ettirish maqsadida Toshkent real bilim yurtiga hujjat topshiradi. Biroq "begona" ekani bois o'qishga qabul qilinmay, hujjatini o'sha zahoti qo'lga qaytarishadi. Shu tariqa qahramonimiz aksar tengqurlarining – mahalliy xalq yoshlarining ta'limdan shunchaki chetlatilayotganini o'z ko'zi bilan ko'radi. Tabiiyki, bunday adolatsiz munosabatdan so'ng uning qalbida jiddiy savol tug'iladi: "Nega ilm olish huquqi barchaga teng emas?"

Ehtimol, Muhtidin Tursunxo'jayevning hayoti mana shunday "nega"lar ustiga qurilgandir. Chunki qahramonimiz keyinchalik bunday "nega"larga har qadamdagi to'qnash kelaverib, o'zi sezib-sezmagan tarzda adolat istovchi kurashchani shaxsga aylanadi.

O'qishdan rad javobini olgan Muhtidin 1915-yildan turli idoralarda xizmat qiladi. Davlat banki bo'limida ish yurituvchi bo'lib ishlaydi, so'ngra notarial idorada xat tashuvchi, sarkor vazifasini bajaradi. Har kunlik yumush, xat-hujjat ishlarida puxta tajriba to'playdi. Bu esa unga ko'p jihatdan tizimning beqarorliklari, adolatsiz qarorlar qayerdan paydo bo'layotganini kuzatish imkonini beradi.

1918-yilning boshlariga kelib, Muhtidin Tursunxo'jayev "Maqsud" nomli kooperativda ish boshlaydi. Ko'p o'tmay, Eski shaharda istiqomat qiluvchi musulmon aholidan chiqqan xizmatchilar: xat tashuvchilar, mirzalar kasaba uyushmasini tashkil etishda faol qatnashadi. Ayni o'sha yili so'l eserlar partiyasiga a'zo bo'ladi. Shu bilan birga, huquq-tartibot sohasida ham faoliyat yuritadi. 1918–1919-yillarda militsiya boshlig'i bo'lib ishlaydi. Qizig'i, bunga qadar yo'lni u Eski shaharda tungi qorovullikdan boshlab bosib



o'tadi. Shuning uchun bo'lsa kerak, qahramonimiz xalq dardiga quloq tutadigan, oddiy odamlarga qayishadigan shaxs sifatida tanila boshlaydi.

1919-yilning fevralida Toshkent shahar sovetiga saylanib, ijtimoiy ta'minot bo'limida kotib sifatida ish boshlaydi. Bu lavozim unga jamiyat bilan yanada yaqin muloqotda bo'lishi uchun yo'l ochadi. Sentyabrda Eski shahar partiya qo'mitasi kotibi etib saylanadi.

Siyosiy va tashkiliy faoliyatda tajribasi kun sayin oshib borayotgan Muhtidin Tursunxo'jayev 1920-yil 14-yanvarda Moskvaga yo'l oladi. U yerda Sverdlov nomidagi Kommunistik universitetning Boshqaruv fakultetiga o'qishga kiradi. Bu universitet o'sha paytda kadrlar tayyorlaydigan nufuzli o'quv muassasasi hisoblanardi. Muhtidin bu yerda turli o'lkalardan kelgan yoshlar bilan fikr almashish orqali tafakkur doirasini kengaytiradi. Boshqacha aytganda, universitetdagi tahsil uning rahbarlik qobiliyatini o'stiradi.

Muhtidin tahsilni muvaffaqiyatli yakunlab, yo'llanma bilan Turkiston ASSR Ichki ishlar xalq komissarligida ish boshlaydi. So'ngra Buxoro Xalq Sovet Respublikasiga xizmat safariga yuboriladi. Buxoroda Ichki ishlar noziri kotibi, keyinchalik uning o'rinbosari sifatida faoliyat yuritib, xavfsizlik va ma'muriy tizimda muhim vazifalarni o'taydi.

1921-yilning o'rtalariga kelib, Muhtidin Tursunxo'jayev Farg'onaga yuboriladi. U yerda viloyatdagi ichki ishlar tizimida vaqtinchalik militsiya boshlig'i, ayni paytda Farg'onaviy viloyat komsomol qo'mitasida rasmiy vakil sifatida ham faoliyat olib boradi. Uning mintaqaviy darajadagi ushbu faoliyati sobiq markazda ham e'tirof etilib, o'sha paytdagi eng nufuzli siyosiy anjumanlardan biri – RSFSR sovetlarining X syezdiga (1921-yil, dekabr) delegat sifatida, syezddan so'ng respublika komsomol Markaziy Komiteti sekretari lavozimiga saylanadi.

1922-yilga kelib Muhtidin Tursunxo'jayevning siyosiy faoliyati yangi bosqichga ko'tariladi. U Samarqand viloyat komsomol qo'mitasiga rahbar etib tayinlanadi. Bu lavozim, ayniqsa, o'sha vaqtda yoshlar bilan ishlashda katta mas'uliyat talab qiladi. Bir muddatdan so'ng Muhtidin Tursunxo'jayev Moskvada bo'lib o'tgan IV Butunrossiya komsomollar syezdida delegat sifatida qatnashib qaytgach, Eski shahar ijroiya qo'mitasining boshqarma mudiri lavozimiga tayinlanadi. Mahalliy boshqaruv organlarining samarali faoliyati uchun turkib beradigan tashkiliy choratadbirlar aynan uning rahbarligida amalga oshiriladi.

1923-yil oxirida u Sirdaryo viloyat partiya qo'mitasining targ'ibot va tashviqot bo'limiga rahbar etib tayinlanadi. 1924-yili esa iqtisodiy sohaga jalb

qilinadi – "Turkiston ipagi" aksiyadorlik jamiyati raisi vazifasida 1926-yilgacha faoliyat yuritib, bu borada ham o'zini yetuk kadr sifatida namoyon etadi.

Muhtidin Tursunxo'jayev ayni shu yillarda Revolyutsiya Kurashchilari xalqaro tashkilotining Farg'ona, Marg'ilon uyushmalarini tashkil etadi. Bu tashkilot siyosiy ta'qiblarga uchragan, mahkum qilingan insonlarga yordam ko'rsatish, ularni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash maqsadida tuzilgan bo'lib, bu ham qahramonimizning xalq-parvar qiyofasini yorqinroq ochib beradi.

1929-yilga kelib, Muhtidin Tursunxo'jayev O'zbekiston SSR Ichki ishlar xalq komissari o'rinbosari etib tayinlanadi. 1929-yil 6-noyabrda Moskvaga yuborilib, O'zbekiston SSRning rasmiy vakili vazifasida ish boshlaydi. Bu lavozim uni markazdagi siyosiy jarayonlarga yaqinlashtiradi. Sovetlar syezdlariga delegat etib saylanadi, federal darajadagi Byudjet komissiyasida ishtirok etadi. Uning fikrlari va ma'ruzalari mahalliy imkoniyatlarni markazga yetkazishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

1932-yilda SSRS Fanlar akademiyasi tashabbusi bilan o'tkazilgan O'zbekiston ishlab chiqaruvchi kuchlarini o'rganishga bag'ishlangan ilmiy konferensiyada faol ishtirok etadi. Konferensiya doirasidagi ma'ruzalarni nashrga tayyorlash jarayonida tahririyat a'zosi sifatida qatnashadi. Shu bilan birga, "O'zbekistonning 10 yilligi" deb nomlangan ilmiy-ijtimoiy albomning mas'ul muharrirlaridan biri sifatida taniladi. Bularning barchasi qahramonimizning ilm-fan, iqtisod, siyosat – har bir sohada salohiyat doirasi keng bo'lganini ko'rsatadi.

...Bir qarashda hamma eshik ochiqdai, mansab pillapoyasida o'sish ham izchil davom etayotgandek ravon ko'rinadi. Biroq siyosiy to'fonlar, shubha va tuhmatlar avj olgan mash'um 1937-yil voqealari Muhtidin Tursunxo'jayevni ham chetlab o'tmaydi, u 13-avgust kuni Toshkentda, Baliqchi ko'chasidagi uyida hibsga olinadi. Unga bir qator jiddiy ayblar qo'yiladi. U go'yo 1919-yildagi

Osipov qo'zg'olonida sovet hokimiyatiga qarshi harakat qilgan, "bosmachilarga yordam ko'rsatgan, keyinchalik chet el razvedkasi bilan aloqa o'rnatib, maxfiy ma'lumotlar uzatgan odamga aylanadi. "Milliy ittihad" tashkilotida ishtirok etgani, Germaniyada tahsil olgan Abduvahob Murodiyni ishga joylashtirgani, o'zbeklarni Ukrainaga majburan ko'chirishga qarshi chiqqan ma'ruzalari ham unga qarshi "dalil" sifatida keltiriladi. 1938-yil 4-oktyabr kuni Muhtidin Tursunxo'jayev SSSR Oliy sudi harbiy kollegiyasining sayyor majlisida "xalq dushmani" sifatida oliy jazoga hukm etilib, o'sha kunning o'zidayoq otib tashlanadi.

Bugun tarix sahifalarini varaqlab, sovetlarning birinchi qatag'ongacha bo'lgan kadrlar siyosati nihoyatda ustamonlik bilan ishlab chiqilganini ko'ramiz. Avvaliga xalq orasidan ilmiy salohiyati yuqori yoshlarni tanlab olib, ularga imkon beradi, mas'ul lavozimlarga tayinlaydi, til o'rgatadi. Yosh kadrlarning uncha-muncha xatosini kechirgandek bo'ladi, o'z xalqiga qayishgan, vatandoshlarini himoya qilgan vaziyatlarga ham ko'z yumadi go'yo. Mahalliy mansabdorlar o'z xalqi bilan tez til topisha olishi tabiiy edi. Ammo bu "milliy respublikalar huquqi o'z qo'lida" ekanini tasdiqlovchi Dekretga asosan emas, balki uzun tashlab qo'yilgan arqon xiyalasining uzviy bir qismi edi.

Nihoyat yosh sovet davlatining barcha tarmoqlari izga tushib, yo'nalishlar qaddini rostlab olgach, mahalliy kadrlarga qarshi qilich yalang'ochlanadi. Endi mintaqadagi salohiyatli kadrlarning payi qirqladi. Aks holda, yuksak bilim va tajribaga ega fuqarolar xalqni ortidan ergashtirib ketishi, pirovardida, hurriyat talab qilib qolishi ham hech gap emasdi. Shunday qilib, kelajakda yirik davlat va jamoat arbobi bo'lishi kutilayotgan istiqbolli kadrlarning boshi qatag'on jodisiga tushadi...

Rustambek SHAMSUTDINOV,
tarix fanlari doktori,
professor

XOTIRA AZIZ



QATAG'ON QURBONLARI

(Davomi.
Boshlanishi o'tgan sonlarda).

Mustafo Ismoilzoda – 1906-yili Buxoro shahrida tug'ilgan. Oilali, savodli. Diniy muhit kuchli bo'lgan oilada o'sib-ulg'aygan.

"Milliy ittihad" tashkilotining barcha yig'inlarida ishtirok etgan.

Stalin sha'nini haqoratlash va bir necha bor sovetlarga qarshi fikr bildirishda ayblanib, 1936-yil 1-noyabrda hibsga olingan. 1937-yil 1-sentabrda 10 yil muddatga mehnat tuzatuv lageriga jo'natilgan.

Tosh Rahmatullayev – 1884-yili Buxoro shahrida tug'ilgan. Yirik savdogarlardan bo'lgan.

Buxoro Xalq Sovet Respublikasi davrida va undan keyingi yillarda "Milliy ittihad" tashkilotining faol a'zosi sifatida Muinjon Aminov, Ota Xo'jayev, Ibod Xo'jayev, Najab Qurbonov va boshqalar bilan mustahkam aloqalar o'rnatgan. BXSr rahbariyatining topshiriqlarini bajargan.

Qamoqqa olingan paytda milliy ozodlik harakati yig'inida ishtirok etayotgan edi. O'zSSR Jinoyat kodeksining 66-moddasi 1-bandi bo'yicha ayblanib, 1937-yil 20-fevralda qamoqqa olingan. 1937-yil 17-avgustda otuvga hukm etilgan.

Musa Xo'jayev – 1883-yili Buxoro shahrida tug'ilgan. Savodli, sobiq savdogar. "Milliy ittihad" tashkilotining a'zosi.

Qurbonov, Mo'minov va boshqalarning sovet hukumatiga qarshi faoliyatini yashirishda ayblanib, O'zbekiston SSR Jinoyat kodeksining 66-moddasi 1-bandi bilan 1937-yil 28-fevralda hibsga olingan. 1937-yil 17-avgustda otuvga hukm qilingan. Hukm 26-avgustda ijro etilgan.

Ahad Homidov – 1902-yili Vobkent rayonida dehqon oilasida tug'ilgan.

"Milliy ittihad" yig'ilishlarida ishtirok etib, sovetlarga qarshi fikr bildirganlikda, Stalin sha'niga, konstitutsiyaga qarshi tashviqot olib borganlikda ayblanib, 1936-yil 10-dekabrda hibsga olingan. 1937-yil 17-iyulda otuvga hukm etilgan.

Ahmad Alimov – 1899-yili Buxoro shahrida tug'ilgan, savodli, xizmatchi.

"Milliy ittihad" tashkilotining a'zosi bo'lgan. Bir muddat Buxoro madaniyat va dam olish parki direktori vazifasini bajargan.

Shahardagi qurilishlarni vayron qilishga qaratilgan qo'poruvchilik ishlarini olib borganlikda ayblanib, 1937-yil 27-fevralda hibsga olingan va 17-avgustda otib tashlangan.

Umar Faxriyev – 1889-yili Buxoro shahrida tug'ilgan, savodli, sobiq savdogar.

"Milliy ittihad"ning a'zosi. 1922-yil oxirida tashkilot tomonidan Germaniyadagi tashkilot vakili Olimjon Idrisiy yoniga jo'natilgan. U yerda milliy ozodlik harakati guruhlarini tashkil etish va qurollantirishda qatnashgan.

O'zSSR Jinoyat Kodeksining 66-moddasi 1-bandi qo'llanilib 1937-yil 11-fevralda hibsga olingan. 1937-yil 17-fevralda otuvga hukm etilgan va 26-avgustda otilgan.

Azizbek MAHKAMOV,
tarix fanlari bo'yicha
falsafa doktori

Nigoraxon AKBAROVA,
Adatg'uzilmasidagi
Qatag'on qurbonlari
muzeyi xodimasi
(Davomi kelgusi sonda).

JADID MATBUOTI

NOZIMAXONIM NIDOSI

Nozimaxonimning tabarruk ismi mumtoz shoirlar safining oxirida va XX asr ijodkor ayollari ro'yxatining avvalida keladi. U xonliklarning tugatilishi, Turkiston Muxtoriyati va sovet hukumatining tashkil etilishi pallasida umr o'tkazdi. U ijodini salafari singari sham shu'lasida aruzdan boshlab, xalafari kabi elektr chiroq nurida barmoq vaznida tugatdi. Ha, u xalqimizning ikki asr oralig'idagi turmushini o'zidan o'tkazib ko'rdi. Natijada, davrning nazmda ifodalash mumkin bo'lmagan, hali o'zbek adabiyoti duch kelmagan voqealarini publitsistikada bayon etishga tushdi va bu borada salmoqli ishlarni amalga oshirdi.

Jadid maktabidan chiqqan turkistonlik ziyoli ayollarning yorqin vakilasi, shoira Nozimaxonim zamonasining ilg'or shaxslaridan edi. Yozgan maqolalari, kuyunchak so'zi, salmoqli ijodi ko'z o'ngimizda uning erkarparvar qiyofasini chizib beradi.

Nozimaxonim 1870-yilda Toshkentning Besh-yog'och dahasida davrining peshqadam ziyolisi Mulla Said Ahmad xonadonida dunyoga keladi. Keng fikrli, ilm-u ma'rifatga oshno ota qizining kelajagiga katta umid bog'lab, uning har tomonlama to'liq bilim olishi uchun barcha imkoniyatni yaratadi. Qahramonimiz avvaliga mahalladagi qizlar maktabida oltinoyoq qo'lida saboq oladi, keyin rus-tuzem maktabida o'qib, dunyoviy bilimlar bilan tanishadi. Bolalikdan ilmga tashna qizaloq arab, fors, rus va tatar tillarini puxta o'zlashtiradi, turli tillardagi nashrlar bilan tanishib boradi va shu orqali dunyoqarashini boyitadi.

Adabiyot va jurnalistikaga bo'lgan mehri uning vaqtli matbuotda nom qozonishida turkib bo'ladi. Zamonaning og'riq nuqtalarini yoritish asnosida qahramonimiz ilm-ma'rifat, tenglik va ozodlik jarohisi sifatida bo'y ko'rsata bordi. Shu tariqa, matbuotimiz tarixida ilk publitsist ayol sifatida e'tirof topdi.

Uning faoliyatida ma'rifatparvar Omina Bonu bilan fikran yaqinlik va mustahkam do'stlik muhim o'rin tutgan. Omina Bonu unga maktab yo'llarkan: "She'raringiz menga juda ma'qul bo'ldi, biroq shu bilan birga gazeta sahifalariga maqola berib tursangiz, ko'p ulug' va savob ish bo'lur edi", deya da'vat etadi. Ana shu chorlov samarasi o'laroq, matbuot nashrlarida "Beshyog'ochlik Nozimaxonim" imzosi paydo bo'ladi.

Nozimaxonimning 1904-yili "Turkiston viloyati-

ning gazetasi"da chop etilgan maqolalaridan biri "Insonga qancha erk dorkor?" deb nomlanadi. So'ngra mahalliy matbuot sahifalarida "Xotinlar huquqiga oid", "Ilm va maorif borasida bir-ikki so'z" kabi maqolalari bosmadan chiqadi. Bu maqolalar o'zining teran mazmuni va o'tkir ruhi bilan Turkistonda ozodlik g'oyalarining yoyilishi, xotin-qizlar o'r'tasida demokratik intilishning kuchayishiga xizmat qiladi.

"Taraqqiy" gazetasining 1907-yilgi sonlarining birida uning "Afsus" nomli she'ri e'lon qilinadi. Shoira ushbu she'r orqali haq so'zni xotin-qizlarga yetkazmoq umidi bilan: "Ki, shoyat zulm tuni barham bo'ldi", deb yozadi. Nozimaxonim "Turkiston viloyatining gazetasi", "Taraqqiy", "Shuhrat", "Xurshid", "Hurriyat", "Osiyo", "Sadoyi Turkiston", "Ulug' Turkiston", "Samarqand" kabi gazetalarda, shuningdek, Mahmudxo'ja Behbudiy muharriklik qilgan "Oyina", Ufada chop etilgan "Sho'ro" va Ozarbayjonda chiqarilgan "Irshod" jurnallarida g'azallari, hajviy she'r va publitsistik maqolalari bilan faol ishtirok etadi.

Shu o'rinda, qahramonimizning matbuotda "Ayollarga erk dorkor" deb baralla chiqishini o'sha qaltis davrdaagi haqiqiy jasorat namunasini edi, deyish mumkin. Maqolada o'tmish tuzumning ayollarni chekllovchi qoidalari keskin tanqid qilinadi. Bunday qat'iyat ortidan el orasida tez tilga tushgan Nozimaxonim ijodini kutadiganlar soni kun sayin oshib boradi.

1907-yili "Shuhrat" gazetasida chop etilgan "Ilm va maorif borasida bir-ikki so'z"da Nozimaxonim Turkiston jamiyatining og'riqli muammosiga – ta'lim va ma'rifat ahvolutiga yuzlanadi. "Sadoyi Turkiston"da ham, xususan, nashrning 1915-yilgi 13-sonida ilm-ma'rifatga doir keng qamrovli mulohaza bilan chiqadi. "Zamonning ahvoli, o'zga xalqlarning turush-turmushlari, o'z ona-singil va qizlariga bo'lmish yaxshi munosabatlar haqida ba'zi xabarlarini o'qishga muyassar bo'ldik. Illo, bunday holatlar bizning Turkiston muzofotida jamiyat orasida hali yuz ko'rsatmamishdii", deya kuyinadi. Ayni vaqtda, "Jamiyatimiz ahvoli ruhiyasinda o'shandek holatlarni vujudga keltirish uchun... elimizning ma'rifati, oqil va dono arabolarining sa'y-harakat qilmoqlariga vaqt yetmadimikan?"

Nozimaxonim maktabdorlik – otin sifatida ham jamiyatda katta iz qoldirdi. Qahramonimiz shogirdlaridan oxunguzarlik Manzurabonu Majidovaning "Toshkent oqshomi" gazetasida

1966-1967-yillarda chop etilgan "Tabarruk odam edilar va "Ustozim haqida" nomli xotiralaridan ma'lum bo'lishicha, Nozimaxonim rus va tatar tillarida yaxshi gaplashar va o'qir edi. "Ruscha qiziq-qiziq rasmiy kitoblarni ko'rsatar, o'qib hamda tarjima qilib, biz qizlarga tushuntirib berar edi", deyiladi yodnomalarda. Va yana keltirib o'tiladiki, u shogirdlariga tatarcha gazetalarni ham o'qib turish kerakligini aytar, "tatar ayollarining maktabda ochiq o'qib, teatrga bemalol borishlari mumkinligi, hatto sahnaga qo'rqmay chiqib rol o'ynashlarini" ham havas bilan so'zlab bergan.

Nozimaxonim yon atrofdagi mahalla qizlarini ham o'qitib, ularga har tomonlama chuqur bilim berishga, ularni diniy va dunyoviy fanlar, badiiy adabiyot, tarix va geografiya bilan oshno etishga harakat qilib, dunyoda bo'layotgan voqea-xodisalardan muntazam xabardor qilib borgan.

Manzurabonu tag'in eslaydi: "1916–1917-yillar edi. Otincha ayam (biz Nozimaxonimni shunday atashni odat qilgan edik) qo'l ostida 12 nafar qiz o'qir edik. Shu qizlardan yettitasi shoira bo'lib yetishdi va biz Otincha ayamdan she'r qonun-qoidalari puxta o'rganar edik.

Nozimaxonim ko'pincha bizni bir yerga o'tqazib, o'zaro mushoira qilar edilar. Dastlab birimiz bayt aytardik, qolganlarimiz esa shu baytga munosib yana bir bayt qo'shib ketaverdik. Shunday qilib yetti baytdan iborat bir g'azal bunyod bo'lardi... Otincha ayam eng yaxshi chiqqan mushoirlarimizni bizdan xotira sifatida o'z daftarlariga ko'chirib qo'yar edilar. O'sha shoira deganlarimizning ismlari mana bunday edi: Muattar, Gulchehra, Nasiba, Parivash, Sayyora, Surayyo. Biz yetti shoira birgalikda qirdan ortiq mushoira – she'r ijro etgan edik. Afsuski, ularning birortasi ham menda saqlanib qolmagan" ("Nozimaxonim haqida xotiralar"dan. "Toshkent oqshomi" gazetasi, 1960-yil 2-yanvar).

...1924-yili ellik to'rt yoshida hayotdan ko'z yumgan publitsist, ma'rifatparvar shoira Nozimaxonimning she'rlari adabiyotshunos To'xtasin Jalolov tuzgan "O'zbek shoirlari" to'plamiga kiritiladi. Biroq shunga qaramay, qalblarni o'z she'rlari bilan munavvar etib, o'z davri ma'naviy hayotida o'chmas iz qoldirgan bu fidoyi ayol haqida mufassal tadqiqot ishlari yo'qligi kishini o'ysolaadi. Nozimaxonim ijodi haqida ma'lumotlar turli maqola va xotiralarda parchalar holicha saqlanib qolgani



bois, uning adabiy merosini chuqur o'rganish zarurati hali ham dolzarbligini yo'qotmagan.

Shoiraning tug'ilgan yili xususida ham turli manbalarda zid ma'lumotlar uchraydi. Ayrim manbalarda uning 1870–1920-yillarda yashagani qayd etilsa, 1999-yili Abdulla Qodiriy nomidagi xalq nashriyotida chop etilgan "Sharqning yetti yog'dusi" kitobida boshqa sana (1869–1924) ko'rsatilgan. Ana shu noaniqlikning o'ziyog' Nozimaxonim hayoti va ijodi yuzasidan jiddiy ilmiy tadqiqot olib borish zarurligini anglatadi.

Agar o'sha davrning vaqtli matbuot nashrlariga murojaat qilinsa, nomlari keng jamoatchilikka hali noayon o'nlab ayol ijodkorlarning boy she'riy va ma'rifiy merosi kashf etilishi mumkin. Ular asarlarida zamonning ijtimoiy hayoti, xotin-qizlar taqdiri va ma'naviy qiyofasini jonli tarzda aks ettirganlar.

XX asrning 20-yillarida xotin-qizlar matbuoti va umumiy vaqtli nashrlar sahifalarida yangi bir avlod ayol ijodkorlari ismlarini o'qiyimiz: Xosiyat Tillaxonova, Muzayyana Alaviya, Oydin, Mahbuba Rahim qizi, Zarifa, Erkin, Yulqin, Nazokat, Matluba, O'fobxon Xolbotirova... Ular nafaqat she'r yozgan, balki jamiyatda xotin-qizlarning o'rni, ma'rifat, tenglik va ozodlik masalalari haqida ham faol fikr bildirganlar.

Shubhasiz, Nozimaxonim shaxsiyati va ijodi orqali biz XX asr boshlaridagi ayol ijodkorlar olami, ma'naviy uyg'onish jarayonlari va milliy taraqqiyot masalalari haqida tasavvurga ega bo'lamiz. Shu jihatdan qahramonimiz hayoti bizga ilm, ma'rifat va ozodlik yo'lidagi harakat har qanday davrda ham qimmatli ekanini o'rgatadi.

Marhamat ALIMOVA,
tarix fanlari nomzodi



QUTLOV

JILG'ALAR BOSH QO'SHIB DARYO BO'LADI

“Jadid bobomga maktub” ijodiy insholar tanlovi yurtimiz maktablarida tahsil olayotgan izlanuvchan o'quvchilarning qalbi va qalamiga yangi umidlar hamda ilhom berdi, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Hafta davomida yurtimizning turli manzillarida bo'lib, g'olib va sovrindorlarni taqdirladik, har birining ota-onasi, ustozlariga cheksiz minnatdorlik izhor etish imkoniga ega bo'ldik.

Safarimizni Ajiniyoz, Berdaq kabi yetuk oqin va jirovlar kuyilgan qo'shiq ohanglari haligacha yashagan turgan tuproqdan – Nukusdan boshladik. Bu yerda tanlov sovrindori, 36-sonli maktab o'quvchisi Tumaris Baxtiyarova bilan uchrashdik. U jadid bobolar asarlarini yana bir qayta o'qib, o'ziga xos insho yozgani sababli uchinchi o'rinda saozov bo'lgan. Maktab jamoasi oldida unga tanlov nizomida nazarda tutilgan sovg'alarni berib, qizg'in qutladik.

Keyin yurtimizning qadimiy va ma'naviy markazlaridan biri bo'lgan Xorazmga yo'l oldik. Urganch shahridagi 1-son ixtisoslashtirilgan maktab-internatida tahsil olayotgan Nafisaxon Otaboyeva bilan ko'rishdik. U birinchi o'rinni qo'lga kiritgani uchun 5 million so'm pul mukofoti hamda 1000 ta badiiy, ilmiy-ommabop kitob va faxriy yorliq bilan taqdirlandi. Sovg'alarni “Jadid” gazetasi tahririyati nomidan “Sharq yulduzi” va “Zvezda vostoka” jurnallari bosh muharriri Sirojiddin Rauf hamda O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi a'zosi Shuhrat Matkarim g'olibga tantanali tarzda topshirdi. Maktab ma'muriyati Nafisaxonga berilgan mingta kitob kutubxonaning eng ko'zga ko'rinar burchagidan o'rindi olishini alohida ta'kidladik.

Keyingi manzilimiz yirik ilmiy va ma'rifiy markaz, Abdurauf Fitrat, Sadridin Ayniy, Abduvohid Munzim, Usmonxo'ja Po'latxo'ja o'g'li va Fayzulla Xo'jayev kabi zotlar yashagan muborak maskan – Buxoroyi sharif bo'ldi.

Avval e'lon qilganimizdek, Shofirkon tumanidagi 3-umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchisi Sabina Otamurodova faxrli uchinchi o'rinni qo'lga kiritgan. Tadbir davomida Sabina yozgan insho yig'ilganlarga o'qib berildi.

U yerdan Navoiy viloyati sori yuzlandik. Cho'l bag'rida yastangan mo'jiza maskan – Konimex tumanidagi 19-umumta'lim maktabi o'quvchisi



Jasmina Nosimova rag'batlantiruvchi o'rini bilan tantanali taqdirlandi. Kutib olish marosimi o'ziga xos milliy ruhda uyushtirildi. Uch millat – o'zbek, qoraqalpoq va qozoq milliy kiyimlaridagi uch qiz, qo'llarida xalqlarimizning sevimli taomi – bo'g'irsok. Taqdirlash marosimi kutilganidan ham tantanali va ta'sirli o'tdi. Jasmina haqidagi qissani eshitib, nihoyatda ta'sirlandik. Tanlovga tayyorgarlik paytida uni otasi 40 daraja issiqda maktabga velosipedda olib kelgan va kechroq xuddi shu tarzda olib ketgan. Ta'lim bo'lishiga qaramasdan qizining “tolibai ilm”ligi uchun vaqti va mehnatini ayamagan otaning ishonchi va fidoyiligi bugun o'z mevasini bermokda.

Tuman MMTB rahbari Ajargul Usmanovanning aytishicha, bu maskan ko'p millatli maktab hisoblanib, unda 96 nafar o'zbek, 24 nafar qoraqalpoq va 9 nafar qozoq millatiga mansub bolalar tahsil oladi. Shu kuni kechga yaqin ma'rifat va madaniyat beshigi, Turkiston jadaligining otasi Mahmudxo'ja Behbudiy yashab ijod qilgan shahar – Samarqandga yetib keldik.

Bu safar Ibrohimjon Qudratovni rag'batlantiruvchi o'rini bilan tabriklash uchun Kattaqo'rg'on tumani, 32-umumiy o'rta ta'lim maktabi manzilimiz bo'ldi. Uning onasi tarbiyachi bo'lib, farzandining tayyorgarlik jarayonida doimo yonida bo'lgan, yo'l-yo'riq ko'rsatgan. Biroq eng muhimi – Ibrohimjon jadidlar haqidagi

umumiy va odatiy yo'ldan emas, balki o'ziga xos, mustaqil yo'ldan borishni ma'qul ko'rgan. Yaxshisi, bu haqida o'zidan “eshiting”: “Qarasam, do'stlarim Behbudiy, Avloniy, Qodiriy kabi taniqli jadidlarga maktub yozyapti. Men esa dramaturg, shoir va publitsist – G'ulom Zafariyga xat yozishga qaror qildim. Balki shuning uchun g'olib bo'lgandirman. Lekin bu tanlov meni ko'proq o'qib, izlanishga undagani rost”.

Samarqanddan tunda tag'in o'tlandik. Poyezd bir maromda yo'l tanobini tortib borarkan, derazadan boqib, Boysun dashtlarining cheksizligidan bahramand bo'ldik, tog'lar bag'ridagi sokin tabiatni maroq bilan kuzatdik. Ha-a, muqaddas vatanimiz nihoyatda go'zal va farahbaxsh maskanlarga boy. Yo'lda bizga qo'shilgan vagonodoshlar bilan guruh boshlandi. Alpomishekbat bir kishi “o'n ming uyli qarindosh”ning “ulug' to'rasidek yastanib, “Kuntug'mish” dostonidagi mashhur xitobni aytdi: “qaydin kelasan, ayyil?” Biz esa g'urur bilan dedik: “Shu tog'lar ortida bir iste'dodli qiz bor ekan. U “Jadid bobomga maktub” tanlovida qirg' ming alpni utib edi. Shuginani totini bergani kelyapmiz...”

Nihoyat, Surxondaryo viloyati, Uzun tumanidagi 56-maktabga yetib bordik. Tabiat ham go'zal, odamlar ham samimiy. Tanlovda rag'batlantiruvchi o'rinni qo'lga kiritgan Mashhura O'rinbadalova yosh jadidshunos bo'lish

barobarida, zamonaviy fanlarni puxta o'zlashtirayotgan o'quvchi ekan. Ingliz tilidan tayyorgarlik ko'rib, IELTS imtihonidan 6 ball olgan. Ilmga chanqoq, ma'naviyatli, umidli yoshlardan.

Qarshi shahrida joylashgan Abdulla Oripov nomidagi ijod maktabida o'tkazilgan tadbir O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi bilan boshlandi. Bu yerda o'zbek xalqining ardoqli farzandi, ulug' shoir Abdulla Oripov nomini yuksak sharaf ila tilga oladigan o'quvchilar tahsil oladi. Ulardan biri – Gulhayo Narzulloyeva tanlovning ikkinchi o'rinda saozov bo'ldi. U to'rt million so'm pul mukofoti va badiiy hamda ilmiy-ommabop kitoblarni to'plami bilan taqdirlandi. Ammo uchinchi o'rinda saozov bo'lgan o'quvchi o'ziga maslahatlashib, ota-onasining ham fikrini olib, har bir so'zni pishita-pishita qog'ozga tushirgan. Ammo so'nggi, o'zining ko'ngli to'lgan variant... bizga yuborilmagan. Bir marta yuborgandan keyin, yana yuborishga iymangan ekan. Bu hikoya ijodkor qiz qalbining beg'uborligi, o'ziga nisbatan talabchan ekanini ko'rsatadi. Tadbir yakunida Gulhayoni ustozlari, yuborishga iymangan ekanini ko'rsatadi. Har bir tabrikda bu qiz hali juda ko'p marralarni egallaydi degan ishonch bor. Jadidlar izidan borib, ular kabi yetuk

fikrlash va millat ravnaqini o'ylash baxti muborak bo'lsin, Gulhayo!

Farg'ona viloyati, Marg'ilon shahrida joylashgan Erkin Vohidov nomidagi ijod maktabidagi uchrashuvimiz ham yuraklarga ilqlik bag'ishladi. Ushbu mo'jiz va ayni paytda muhtasham maskanning iqtidorli o'quvchisi – Shahlo Safarova o'zining bilimga, san'at va madaniyatga, ayniqsa, so'zga bo'lgan muhabbati, izlanishlari tufayli faxrli ikkinchi o'rinni qo'lga kiritgan.

Shahloning she'rleri, so'zlash, sahnada o'zini tutishi – barchasi uning ma'naviyatga boy, qalbida jadidlar merosiga ehtirom barq urgan, yurt ravnaqini o'ylaydigan avlod vakili ekanini ko'rsatdi.

Shuningdek, safar davomida uchinchi o'rinni qo'lga kiritgan Toshkent shahar Yunusobod tumani 260-maktab o'quvchisi Munisa Husanova, qolaversa, Nukus shahridagi 38-sonli maktab o'quvchisi Gulnur Usmanovani, Sirdaryo viloyati, Oqoltin tumanidagi 3-maktab o'quvchisi Ruxshona Bobobekovani, Jizzax viloyati, Sharof Rashidov tumanidagi 17-maktab o'quvchisi G'olibjon Melikulovni, Namangan viloyati, Pop tumanida joylashgan 1-son ixtisoslashtirilgan maktabda ta'lim olayotgan Shukronabonu Rasuljonovani, Farg'ona viloyati, Farg'ona tumanidagi 6-maktabda o'qiyotgan Dilmurod Fazliddinovni, Toshkent viloyati, Angren shahar 7-maktab o'quvchisi Shahinaxon Jalolova, Andijon viloyati, Xo'jaobod tumani 3-maktabda o'quvchi Diliroxona Jamoldinovlarni rag'batlantiruvchi o'rinni qo'lga kiritganlari bilan qizg'in tabriklab, kelajakdagi o'qishlariga omad va zafarlar tiladik.

Bu uchrashuvlar davomida axtarib topganimiz o'n olti buloq – Vatan ravnaqiga munosib hissa qo'shishga intilayotgan o'n olti iste'dodli o'quvchi, bir paytlar jadid bobolar orzu qilgan ma'rifatparvar avlod vakillaridir. Umid qilamizki, ular bosh qo'shib, qo'shdaryoga yondosh ma'rifat daryosiga aylanadi.

Biz ustoz va murabbiylar bayrami arafasida yurtimizni bosh-oyoq kezib, g'oliblar bilan birga ularni tarbiya qilgan, "...moziyga qaytib ish ko'rmooq xayrli" ekanini uqtirgan o'qituvchilarni ham chin dildan qutladik. Prezidentimiz qayta-qayta ta'kidlaganidek, “Najot ta'limda, najot tarbiyada, najot bilimda!” degan ezu go'ya bilan yashayotgan barcha ustoz-murabbiylarni yana bir karra ayyom bilan tabriklaymiz!

“Jadid” jamoasi

TILBILIM

Bolalikda: *“falconching ko'zi bor, kinnasi bor”, “bolam yoki molim suqlandi”, “suq kirdi”* kabi gaplar ko'p quloqqa chalangan. Deylik, qarashi yomonroq yoki o'tkir biror kimsa bo'lsa, *“bu odamning ko'zi bor”, deb gumon qilinardi. “Falconchi chaqalog'imga bir qaragandi, bolam ertalabgacha yig'lab chiqdi”, “falconching suqi kirib, sigirinning qorni damlab ketdi”* va hokazo...

Qizig'i shundaki, bolaning qorni og'risa, shamollasa, yiqilsa, turtinsa ham, *“yomon ko'z”* sabab bo'lishi mumkin edi. Ayni paytda, *“yomon ko'z”ga qarshi butun boshli himoya tizimi ham bo'lib, deylik, bolaning beshigi, do'ppisi, bilagi, bo'yiga ko'zmunchoq, tumorlar taqib qo'yilar, nafaqat yosh bola, balki ko'zga yaqin yigit-qiz, ot-ulov, qoramollarga ham ko'z tegmasin deb ko'zmunchoq, tumor taqib qo'yish udumi bor edi, “bor edi”mas, to'g'rirog'i, hozir ham bor, misol uchun, shaxsiy avtoulovlarda hozir ham shu kabi jihozlarni ko'rib qolamiz.*

Aslida, “yomon ko'z” degan tasavvur faqat musulmon o'lkalari emas, balki yer yuzidagi aksariyat xalqlarda bor va uning ildizi nihoyatda chuqur bo'lib, bundan besh ming yil oldin yer yuzidagi ko'pgina din va madaniyatlarining paydovorini qo'ygan shumerlarga, balki undan ham oldingi davrlarga borib taqaladi. Keyinchalik bu tasavvur Bobil, qadimgi Misr, yahudiylar, nasroniylar, Islom kabi dinlar asosida shakllangan madaniyatlarga ham o'tib, Afrika, Ovrupa va Osiyo bo'ylab keng yoyilgan. Shu bois “yomon ko'z”

degan so'z hozir ham deyarli barcha tillarda bor, deylik, ingliz tilida “evil eye”, fransuz tilida “mauvais oeil”, rus tilida “crnas”, arab tilida “ko'z” va “yomon ko'z” ma'nosida: “al-ayn” va “aynulhasuda”, turk va fors tillarida “nazar” va hokazo...



Qadimgi turkiy yodgorliklarda “yomon ko'z” degan ibora uchramaydi, ammo “suq” so'zi hozirgacha nisbatan ancha faol bo'lib, Koshg'ariy bobomiz “Devonu lug'atit-turk”da unga shunday izoh beradi: *“suq – suq 3r – suq, ochko'z, past odam. Shahodat barmog'ini “suq 3rhak” – “suq barmog” deyish ham shundan. Chunki u ovqatga hammadan oldin uzaluvchi ochko'z barmog'idir.”* “Devon”da yana bir o'rinda *“suqluq”* so'zi ham keltirilib, shunday izohlangan: *“suqluq – suqlik. Ovqat, mol va boshqalar ustida ochko'zlik”*.

Mazkur misollardan ham ko'rinadiki, qadimgi turkiyda *“suq”* so'zi faqat *“ochko'z”* degan dunyoviy ma'noga ega bo'lgan va hech qanday xurofiy ma'no bildirmagan. Shuningdek, *“suq”* so'zining ilgari *“yolg'iz”* degan ma'nosi ham bo'lib, bu ma'no hozir faqat *“suqqabosh”* so'zida saqlangan.

“Suq” so'zi ayniqsa, Yusuf Xos Hojibning *“Qutadg'u bilig”* asarida *“ochko'z”* ma'nosida ko'p uchraydi. Bir bobda hatto suqlikka alohida bir parcha bag'ishlanib, unda *“suq kishi”ga – “tuq kishi”, ya'ni “ko'zi och kishi”ga “ko'zi to'q kishi”* qarama-



qarshi qo'yiladi. Menimcha, unda bildirilgan mulohazalar hozir ham dolzarbligini yo'qotmagan:

“Todumsuz bolur-ul kezi suq kishi,

Kezi suqqa yetmez bu dunya ashi”, –

Ma'nosi: “Ko'zi suq kishi to'ymas bo'ladi, (hatto) bu dunyo ne'matlari unga yetmaydi”.

“Bu suqluq ig-ul bir, oti yoq, emi,

Ani emlaymaymas bu dunya qami”, –

Ma'nosi: *“Bu suqlik bir kasallikdir, uning dori (o'ti), davosi (emi) yo'q, bu dardni bu dunyo emchilari emlay olmaydi”*.

Guvohi bo'lganimizdek, mazkur parchada adib *“kezi suq”* bilan birga *“kezi ach”* iborasini ham ma'nodosh sifatida qo'llagan. Ammo keyinchalik negadir *“ochko'z”, “ko'zi och”* so'zlari faollashib, shu ma'nodagi *“suqli”, “suqatoy”, “suqqi”* kabi so'zlar

biroz arxaiklashgan. Shuningdek, nutqimizda “havas bilan” yoki “ochko'zlik bilan qaramoq” ma'nosidagi – *“suqlanmoq”, “suqlanib qaramoq”* fe'lini ham ishlatamiz.

Ushbu o'rinda yana bir tarixiy hujjat – “Moniylik tavbanomasi”da (“Xuastvanift”) *“suq”* so'zining qo'llanishiga e'tibor qaratmoqchiman. Moniylik inonchiga oid bu asar eron tillaridan biridan qadimgi turkiyga qilingan tarjima bo'lib, unda *“suq”* so'zi har gal “shayton”, “iblis”, “dev”, “jin” yoki g'arbdagi “demon”ga o'xshash bir yaratiq – “yek” nomi bilan birga: *“suq yek”, ya'ni “ochko'z yek”* shaklida, ko'p o'rnlarda: *“tudunchsiz, ovutsiz suq yek”, ya'ni “tuturiqsiz, uyatsiz ochko'z yek”* deb tilga olinadi va uning makridan saqlanishga chaqiriladi (Umuman, qadimgi turkiydagi “yek” personaji ham qiziq, ba'zi manbalarda u: “shayton”, “iblis”ga to'g'ri keladi; ba'zi manbalarda: “jin” yoki “dev”ga o'xshash bir yaratiq. Mutaxassislariga ko'ra, “yek” so'zi etimologik jihatidan turkcha – “yemoq” fe'lidin yasalganligi ehtimolga yaqin, chunki nasroniylar ka oid manbalardagi “demon” (inglizcha: “demon”, fransuzcha: “démon”) ham qadimgi turkiyda “yek” deb, qon so'ruvchi “vampir” esa – “ichkek” (“ichmoq”dan) deb berilgan).

Yana bolalik xotirasiga qaytadigan bo'lsam, *“suq”* so'zini, yuqorida ta'kidlanganidek, *“ochko'zlik”* deb emas, nazar orqali kishining ichiga kirib ta'sir ko'rsatadigan g'ayritabiiy kuch, sehr, jodu deb bilganmiz. “Yomon ko'z” borasidagi tasavvurlarning kelib chiqishi, jug'rofiyasi haqida esa so'zimiz boshida biroz to'xtaldik.

Abduvohid HAYIT

TARMOQLARDA NIMA GAP?

USTOZIMNI QUTLAGANI BORAMAN

Insho yozishni o'quvchi-talabalar har xil qabul qiladi. Kimdir ensasini qotiradi, kimdir “mendan ketguncha...” qabilida topshiradi. O'zining aqlini ko'rsatish uchun hafসা bilan yozadiganlar ham yo'q emas. Ana shu insho yozilgan uch-to'rt varaq hayotimni mutlaqo o'zgartirib yuborgan.

...Maktabni tugatib, institutga kirolmadim. Xayolimda chetga ketish fikri aylanardi. Istanbulda tanish akalar ishlayotgani uchun mo'ljalni Turkiyaga qarab oldim. Begona yurtda qiyinlab qolmay deb, turk tili darslariga qatnay boshladim.

Bir kuni Dilafro'z opa “Bo'sh vaqtimni qanday o'tkazaman?” mavzusida insho yozdirdi. Gapga usta emasman, borini – onam qo'li shirin oshpazligini, menga ham har xil ovqatlar tayyorlashni o'rgatganini yozdim. Keyingi dars oxirida ustozim yoniga chaqirib, Toshkentdagi turk restoranlaridan biri turkchani biladigan yigitlarni ishga olayotganini aytdi. Rahbari bilan gaplashib, ijobiy xarakteristika berdi. Bordim.

Avvaliga ofitsiantlik qilib yurdim, bir-ikki marta taomlar haqida fikr bildirganimni eshitgan bosh oshpaz meni ham sinab ko'rdi. Pishirgan ovqatimdan qoniqli shekilli, sekin-asta o'choq boshiga yaqinlashtira boshladi. Orada koyiganday bo'lib xatolarimni tuzatib turdi. Xullas, ikki yilda binoyidek oshpazga aylandim. Orada restoranning Piterda ham filiali ochiladigan bo'lib, meni ham olib ketishdi. Shu yerda o'qidim. Besh yildan keyin Toshkentdagi restoran direktori Anqaradagi yangi ishga meni mas'ul qilib tayinladi. Keyin u kishining duosi bilan o'z oshxona biznesimni boshladim. Shukur, hozir ishlar yaxshi ketyapti, faoliyatimni kengaytirayman.

O'tgan yillarda turk tili ustozimning raqamlarini yo'qotib qo'ydim. Ish joyi o'zgarib ketibdi. Yaqinda topdim manzilini. O'qituvchi va murabbiylar kuni arafasida O'zbekistonga borib, Dilafro'z opani tabriklab kelmochiman. Agar u kishi til o'rgatmaganida, inshomni shunchaki o'qib o'tib ketganda, hayotim qanday bo'lardi, bilmadim.

Keldiyor MURODOV
Facebook

Jadid

Muassislar:

O'ZBEKISTON
YOZUVCHILAR UYUSHMASI

RESPUBLIKA MA'NAVİYAT
VA MA'RIFAT MARKAZI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
FANLAR AKADEMIYASI

MILLIY MASS-MEDIANI
QO'LLAB-QUVVATLASH
VA RIVOJLANTIRISH
JAMOAT FONDI

“SHAHIDLAR XOTIRASI”
JAMOAT FONDI

Bosh muharrir:
Iqbol Mirzo

Mas'ul kotib:
Shuhrat Azizov

Navbatchi muharrir:
Otabek Bakirov

Sahifalovchilar:
Erkin Yodgorov
Nigora Tosheva

Muallif fikri tahririyat fikri bilan
mos kelmasligi mumkin.

Tahririyatga yuborilgan maqolalar
muallifga qaytarilmaydi va ular
yuzasidan izoh berilmaydi.

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda
O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligi
tomonidan 195115 raqam
bilan ro'yxatga olingan.

Adadi – 18 790
Shundan:
Kirill yozuvida – 7 141
Lotin yozuvida – 11 649
Media kuzatuvchilar – 77 693
Buyurtma: G – 940.
Hajmi: 4 bosma taboq, A2.
Nashr ko'rsatkichi – 222.
Tashkilotlar uchun – 223.
1 2 3 4 5 6



Manzilimiz:
Toshkent shahri,
Shayxontohur tumani,
Navoiy ko'chasi, 69-uy
Telefonlar:
Qabulxona: (71) 203-24-20
Devonxona: (97) 745-03-69
jadidgt@mail.ru (71) 203-24-17
Jadid_gazetasi@exat.uz

“Sharq” nashriyot-matbaa
aksiyadorlik kompaniyasi
bosmaxonasi.
Bosmaxona manzili:
Toshkent shahri,
Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqti: 21:00
Bosishga topshirildi: 20:00
Sotuvda narxi erkin.

